


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASIGA KIRISH**  
**(uslubiy qo'llanma)**



**Andijon - 2018**

Tuzuvchilar:

V.A.Vositov  
G.M.Ibragimova

**Taqrizchilar:**

M.A.Abduvaliev –

ADU, “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrası  
dotsenti, f.f.n.

L.S.Xudoyberdiyeva –

ADTI, “Tillar, pedagogika va psixologiya”  
kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent.

## KIRISH

Mazkur uslubiy qo'llanma bakalavriyat yo'nalishidagi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, kurs davomida talabalarga hozirgi zamon jahon tillarining xududiy tasnifi, german tillari haqida umumiy tushincha, ingliz tili va uning tarixiy rivojlanishi, germanlar haqida ma'lumotlar, german qabilalari va tillarining tasnifi, Britaniya orollarining ilk tarixi, Britaniyani germanlar tomonidan ishg'ol qilinishi, anglo-sakson qirolliklari, qadimgi ingliz yozuvi, qadimgi ingliz yozma yadgorliklari, qadimgi ingliz tili davri leksikasi, skandinav istilosi, skandinav tilining ingliz tili leksikasiga ta'siri, normandlar istilosi, fransuz tilidan so'z o'zlashtirish, yozuv, normandlar istilosi oqibatlarini, normand gersogligi, ingliz tilining dunyo xududlariga tarqalishi, roman tillari haqida umumiy tushuncha, "Romaniya" atamasining kelib chiqishi, roman tillarining soni, roman tillarini tasniflash muammolari, roman tillarining dunyo xududlariga tarqalishi va ularning ko'rinishlari, Portugal, galisiy, ispan, katalan, fransuz, provansal, italyan, sardin, retoroman, rumin, moldavan va kreol tillari haqida ma'lumot beriladi.

1-ma'ruza (2 soat)

**Mavzu: German filologiyasiga kirish.**

Reja:

1. Kursning maqsad va vazifalari.
2. Hozirgi zamon jahon tillarining xududiy tasnifi.
3. German tillari haqida umumiy tushincha.
4. Ingliz tili german tillarining vakili sifatida.
5. Ingliz tili va uning tarixiy rivojlanishi.

**Kalit so'zlar:** Roman tillari, german tillari, xitoy, ingliz, rus, ispan, hind, urdu, indonez, arab, bengal, portugal, yapon, nemis, fransuz, italyan, panjob, telugu, koreys, maratxa, tamil, ukrain, hind-evropa tillari oilasi, vedalar, sanskrit tili, hozirgi breton, val (uels-breton), irland, shotland, gel, o'lik galla, kornuel (korn) tillari shim. german (yoki Skandinaviya) guruhchasi, shved, norveg, dan, island, g'arbiy german guruhchasi.

Roman-german filologiyasiga kirish fani bakalavriyat yo'nalishidagi talabalarga mo'ljalla ngan bo'lib, uning maqsadi dastlab german, so'g roman tillari, ularning qadimgi morfologiyasi, leksikasi va fonetikasi, hozirgi va qadimgi geneologik, areal tasnifi, hozirda jahonda tutgan o'rni haqida ma'lumot berishdan iborat.

Fanning vazifasi – fanga oid ma'lumotlarni o'zlashtirish.

Dunyo tillari yoki jahon tillari — Yer sharida yashovchi (yoki avval yashagan) xalqlarning tillari. Ularning umumiy soni 2500-dan 5000 gacha. Ko'p tarqagan dunyo tillarining safiga (million kishi hisobi bilan 1985-yilgi ma'limot bo'yicha) kiruvchi tillar: xitoy (1 mlrd-dan ziyod), ingliz (420), hind, o'nga yaqin urdu (320), ispan(300), rus (250), indoneziya (170), arab (170), bengal (170), portugal (150), yapon (120), nemis (100), fransuz (100), pendjav (82), italyan (70),

koreys (65) tillari. Bu hisobga ularni gapiruvchilari bilan birga millatlararo, xalqlarolik aloqa sifatida foydalanuvchilar ham kiradi. Barcha dunyo tillari yaqinligiga qarab tilli oilalarga bo'linadi. Ularning har biri yaqin dialektlari guruhidan chiqqan, qadimgi zamonlarda bir tilning dialektlari bo'lgan yoki bir tilli ittifoqqa kirgan.

Jahon tillari - yer yuzida hozirgi yashayotgan va qadimgi yashab o'tgan xalqlarning tillaridir. Jahon tillarining umumiy soni turli manbalarda 2500 dan 5000 va undan ortiq deb ko'rsatiladi (bularning aniq sonini belgilash juda murakkab, chunki tillar o'rtasidagi va bir tilning dialektlari orasidagi farqlar nihoyatda shartlidir). Jahon tillari ichida keng tarqalganlari (so'zlashuvchilar soniga ko'ra) quyidagilar: xitoy, ingliz, rus, ispan, hind va urdu, indonez, arab, bengal, portugal, yapon, nemis, fransuz, italyan, panjob, telugu, koreys, maratxa, tamil, ukrain va b. Qardoshligiga ko'ra jahon tillari tillar oilasiga birlashadi. Bulardan eng keng tarqalgani hind-evropa tillari oilasiga mansub tillardir. Mazkur tillar taraqqiyoti tarixida qad. hind davri — vedalar, sanskrit tili, o'rta hind davri— pali va prakriti tili, so'nggi hind davri — hozirgi hind va unga yaqin bo'lgan urdu, bengal, maratha, panjob, gujorat, oriy sindxi, nepal, singal va b. alohida ajralib turadi. Eron tillari genetik jihatdan hind tillariga eng yaqin tillar hisoblanadi. Bular orasida qad. eron tili — kad. fors, ovasta, skif tillari; o'rta eron — o'rta fors (pahlaviy), parfiya, sug'd, xorazm va b.; so'nggi eron — fors, pushtu (afg'on), kurd, osetin, pomir, tojik va b. tillar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu tillar vakillari mil. av. 3-ming yillikda G'arbiy Osiyo va Shim. Qora dengiz va Kaspiy bo'yi hududlariga tarqay boshlaydi. Qad. hind tilidagi matnlarning dastlabkilari mil. av. 1-ming yillikda yozilgan bo'lib, prakriti tillari ulardan rivojlanib, ajralib chiqqan, o'z navbatida bu tillardan so'nggi hind tillari — hind, urdu, bengal, maratha, panjob, rajastxon, gujorat, oriy va b. tillar vujudga kelgan. Mil. av. 1-ming yillikdan boshlab Yevropada hind-yevropa tillarining g'arbiy guruhiga mansub tillardagi yozuv yodgorliklar ma'lum. Bular o'lik italiy tillar bo'lib, lotin, falisiy, osk, umbars va b. shu guruhga mansub. Lotin tilining mahalliy turidan roman tillari tarkib topadi: bular — ispan, portugal, fransuz, katalon, provansal, italyan,

sardin, reto-roman, rumin, moldovan va b. tillardir. Kelt tillari ham italiy tillariga yaqin turadi va hind-yevropa tillari oilasining alohida guruhini tashkil etadi. Buning tarkibiga hozirgi breton, val (uels-breton), irland, shotland, gel, mena, shuningdek, o'lik galla va kornuel (korn) tillari kiradi. Qadimgi hind-yevropa tillari oilasi guruhiga german tillari ham kiradi. Xozirgi german tillari quyidagi guruhchalarga bo'linadi: 1) shim. german (yoki Skandinaviya) guruhchasi. Buning tarkibiga shved, norveg, dan, island va fareriya tillari kiradi; 2) g'arbiy german guruhchasi. Buning tarkibiga ingliz, nemis, niderland (golland), friz, idish va afrika tillari kiradi. Sobiq sharqiy german guruhchasiga kirgan tillar (got va b.) o'lik tilga aylangan. Hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi baltlar va slavyan tillari guruhlari bir-biriga yaqin turadi. Boltik, tillari tarkibiga hozirgi latish, litva, shuningdek, o'likpruss va b. tillar kiradi. Slavyan tillari guruhida: sharqiy slavyan — rus, ukrain va belorus; g'arbiy slavyan — polyak, chex, slovak, lujitsa va o'lik polab tillari; jan. slavyan tillari guruhida esa serb-xorvat, Sloveniya, bolgar, makedon, shuningdek, eski slavyan tillari bor. Grek, arman va alban tillari hind-yevropa tillari oilasining alohida guruhini tashkil etadi. Xet tili, tohar tili, frigiya, frakiya, illiriy va b. tillar ko'hna hind-yevropa tillaridan hisoblanadi.

Som-xom tillari (an'anaga ko'ra afrika-osiyo tillari oilasi deb ham ataladi) tarkibiga som tillari (o'lik akkad, eblait, ko'hna xanaan, qad. yahudiy, qad. oromiy, efiop va b. tillar, shuningdek, xoz. ivrit, arab, amhara, tikrika va b. tillar), barbaraliviya, chad (bular orasida eng ko'p tarqalgan — xausa), kushit (somiali, galla va b.), allaqachon o'lik tilga aylangan misr tili, undan kelib chiqqan kott tili kiradi.

Fin-ugor tillari, bir tomondan, ugor tillari (venger, xanti va mansi tillari)ga, ikkinchi tomondan, 4 guruhchaga: perm (udmurt, komiziryan va komipermyak) tillari, volga (mari va mordva) tillari, boltiq bo'yifin (fin, eston, kenel va b.) tillari va suomi tillariga bo'linadi.

Turk, o'zbek, ozarbayjon, tatar, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, chuvash, boshqird, saxa, gagauz, qorayim va b., shuningdek, bir qator o'lik tillar turkiy tillar oilasink tashkil etadi. Bu tillar quyidagi guruhlarga birlashadi: 1) bulg'or (chuvash

tili shunga mansub); 2) jan.-gʻarbiy (turk, ozarbayjon, turkman va b. tillar); 3) shim.-gʻarbiy (tatar, boshqird, qorayim, qumiq, noʻgʻoy, qoraqalpoq, qozoq tillari va oltoy tillariga birlashib qirgʻizqipchoq guruhini tashkil etuvchi qirgʻiz tili); 4) jan.-sharqiy (oʻzbek va uygʻur tillari); 5) shim.-sharqiy (Saxa Respublikasi, Sibir va Oltoydagi boshqa tillar, shuningdek, oʻlik turkiy tillar, yaʼni qad. turkiy yozuvdagi Urxun-Yenisey va b. yozuv yodgorligi bitilgan tillar).

Buryat, hozirgi moʻgʻullarning oʻz tili va bularga yaqin qalmoq, oyrot va b. tillar moʻgʻul tillarini tashkil etadi. Tungusmanjur tillari tarkibiga manjur, even va b. tillar kiradi. Jahon tillari orasida yapon tili (unga qardosh boʻlgan ryukyusi tili) aniq oʻz oʻrniga ega emas. Baʼzi olimlar ularni (koreys tilini ham) oltoy tillari guruhiga qoʻshadilar. Dravid tillari tarkibiga telugu, tamil, kannada, malayalam, tulu, gondi va b. tillar, shuningdek, bularga qardosh elam tili kiradi. Baʼzi ilmiy farazlarga koʻra, hindevropa, som-xom, kartvel, oʻrol, oltoy, dravid tillari yagona ulkan tillar oilasini tashkil etadi.

Kartvel (jan. Kavkaz) tillari tarkibiga gruzin, zan (yoki mergelochan) va svan tillari kiradi. Shim. Kavkaz tillari 3 guruhdan — abxaz, adigey, nax va dogʻiston tillari guruxidan iborat. Xitoy-tibet tillari tarkibida xitoy, tibet-birma (tibet, birma, oʻlik tangut, kachin), shuningdek, himo-lay, nevar va b. tillar bor. Baʼzi tasniflarga koʻra, avstronez tillari alohida oilani tashkil etadi va monkxemer, palaungva, Vyetnam, malakka, munda, myao-yao va b. tillarni oʻz ichiga oladi. Malayya-polineziya tillari (q. Malayya tili va Polinez tillari) koʻpchilik olimlar tomonidan bir oilani tashkil etadi deb hisoblanadi. Uning tarkibi, anʼanaga koʻra, 4 guruhga bulinadi: indonez tillari, melanez tillari, polinez tillari va mikronez tillari. Osiyo qitʼasidagi tillar orasida kelib chiqishiga koʻra, turlicha boʻlgan paleoosiyo tillari aloxida oʻrin tutadi. Paleoosiyo tillari va ulib borayotgan ayna tilida Shim. Amerika indeyslari tillariga xos xususiyatlar uchraydi. Avstraliya tillari bitta oilani tashkil etadi. Garadye, narinyeri, mudura, aranda, vadyug va b. qabilalarning tillari shu oilaga mansub. Hind-Tinch okean (shu jumladan, koʻp sonli papuas tillari) va andaman tillarining bir-biriga qardoshligi aniqlangan. Afrika tub aholisining tillar tasnifi tugal ishlangan emas. Oʻz tarkibiga eng kup tillarni nigerkordofan yoki

kongo-kordofan oilasi birlashtirgan (qarang: Niger-kongo tillari). Bu oilaga mande, kva, bantu (shulardan eng kup tarqalgani suaxili), gur va b. tillar guruhi kiradi. Afrika xalqlari tillari orasida koysan tili (gottentot va ba'zi b. tillar) alohida o'rinni tutadi. Indeys tillari tugal tadqiq etilmagan, uzaro genetik aloqalari xususida aniq ilmiy ma'lumotlar yo'q. Jahon tillarining anchaginasini haqidagi ma'lumotlar bizgacha saqlanib qolgan qad. yozuv yodgorliklaridan ma'lum, ko'pgina tillar esa izzsiz yo'qolgan. Jan.,-Sharqiy Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari tillarining tasnifi ishlab chiqilmagan. Shuning uchun insoniyatning til tarixi hozirgi fanda uncha to'liq yoritilgan emas.

Biz yuqorida jahon tillarini genetik jihatdan tasnif qildik. Kursning o'rganish uchun predmeti bo'lgan german tillari, yuqorida ta'kidlanganidek, hind-yevropa tillari oilasiga mansub tillar guruhidir. G'arbiy Yevropadagi Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Niderlandiya, Belgiya, Shveysariya, Lyuksemburg, Shvesiya, Daniya, Norvegiya, Islandiya mamlakatlarida, Shim. Amerikada (AQSH, Kanada), JAR, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Osiyoda (Hindiston, Pokiston va b.) keng tarqalgan. G. t.da 550 mln.ga yaqin kishi so'zlashadi (1990-y.lar o'rtalari). German tillari 3 kichik guruhga bo'linadi: shim. (shved, dan, norveg, island, farer tillari); g'arbiy (ingliz, nemis, niderland, Lyuksemburg, afrikaans, friz, idish) va sharqiy (got, burgund, vandal, gepid, gerul kabi "o'lik tillar"). Milliy German tillari qabila shevalaridan tashkil topgan. German qabilalari dastlab Skandinaviya yarim oroli janubida, Yutlandiya yarim oroli va Shlezvig-Golshteyn hududida joylashadi. Qadimgi german shevalari shimoliy va janabiy guruxlarga bo'lingan. Miloddan avvalgi 2—1-asrlarda german qabilalarining bir qismi Skandinaviyadan Boltiq bo'yidagi hududlarga ko'chib, sharqiy german guruhini tashkil etgan. Sharqiy Skandinaviya shevalari asosida keyinchalik shved va dan tillari, G'arbiy Skandinaviya shevalari asosida esa norveg tili vujudga keldi. 19—20-asrarda Islandiya va Farer o.lariga Norvegiyadan ko'chmanchilar kelishlari natijasida norveg tili va farer tili yuzaga keldi. Hind-yevropa tillarining keyinchalik yuzaga kelgan vakili — idish tili 10—14-a.larda yuqori nemis shevalarining semit va keyinchalik slavyan tillarita xos ayrim unsurlardan tashkil topadi. Afrikaans tili



esa niderland shevalarining ingliz, nemis, fransuz tillari hamda ba'zi afrika, malay-portugal tillari bilan qo'shilishi natijasida paydo bo'ldi.

German tillarining tarixiy rivojlanishi shartli ravishda 3 davrga bo'linadi: 1) qad. (yozuv paydo bo'lgandan to 11-asrgacha); 2) o'rta (12—15-asrlar; yozuvning rivojlanishi va bu tillarning keng ijtimoiy qo'llanishi); 3) yangi (16-asrdan hozirgigacha; milliy tillarning tashkil topishi va takomillashuvi).

German milliy-adabiy tillari 16-asrda Skandinaviya mamlakatlarida, 16—17-asrlarda Angliyada va 18-asrda Germaniyada shakllangan. Hozirgi Norvegiyada adabiy tilning 2 shakli mavjud: riksmol (1929 yildan bukmol) va lansmol (1929 yildan nyunor). Ingliz tilining Angliyadan tashqarida tarqalishi uning AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR variantlarini keltirib chiqardi. Nemis tili o'zining Avstriya variantiga, Shveysariyada yana ikki varianti — shveysar shevasi va adabiy tiliga ega. 1984 yilda Lyuksemburg tili milliy til mavqeiga ega bo'ldi.

German tillari boshqa hind-yevropa tillaridan quyidagicha farqlanadi: kuchli dinamik urg'u birinchi (o'zak) bo'g'inda bo'ladi; urg'usiz bo'g'inlar reduksiyaga uchraydi; unlilar assimilyativ o'zgaradi; abluat hodisasi morfologik xususiyat kasb etadi; sifatlar kuchli va kuchsiz turlanadi va h. k.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Kursning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Hozirgi zamon tillari genetik jihatdan qanday tasniflanadi?
3. Hozirgi zamon tillari areal jihatdan qanday tasniflanadi?
4. German tillari guruhi qaysi til oilasiga kiradi?
5. German tillari qanday asos tillardan kelib chiqqan?

**Mavzu: Germanlar to'g'risida dastlabki qaydlar.**

Reja:

1. Germanlar haqida ma'lumotlar.
2. German qabilalari va tillarining tasnifi.
3. Britaniya orollariinig ilk tarixi.

**Kalit so'zlar:** german tillari, Pliniy, Tasit, Yuliy Sezar, fleksiya davri, okonchaniya, reduksiya, til iqtisodi davri, vindil, gillevion, germinon, isveon yoki iskevon, bastarn, pevkin, tevton, kimvriy, saks, kelt, iberiy, got, missioner, neolit, gael, breton, gal.

Ingliz tili german tillariga kiruvchi tildir. Germanlar to'g'risida dastlabki qaydlar eramizdan avvalgi II va asrlarda yashagan grek tarixchilari (sayyoh Piteas) asarlarida uchraydi. Eng avvalgi birinchi ma'lumot beruvchi manba Yuliy Sezarning "Gall urushi to'risidagi xotiralar" asari hisoblanadi. (er. avv. I asr). Keyinchalik esa Rim tarixchilari Pliniy va Tatsitlarning asarlarida berilgan. (er. avv. I-II asr).

Tasitning ma'lumot berishicha germanlar o'sha asrlarda Oderdan Reyn daryosigacha bo'lgan markaziy Yevropani egallashgan. Visla daryosining yuqori qismida got qabilalari joylashgan, so'ngra ular janub tomon siljib, u yerdan g'arbga qarab, ya'ni Bolqonga - Italiya va Ispaniyaga o'tishgan.

Ingliz tilining rivojlanish tarixi bilan qiziqqan ko'plab tilshunoslar uni uch davrga bo'ladi:

1. Qadimgi - yozma yodgorliklarning boshlanish davri (VII asrdan IX asrning boshigacha).
2. O'rta - fleksiya davri (XII - XV asrlar).
3. Yangi - til iqtisodi davri (XVI asrdan boshlab).

Ingliz tili tarixi bilan yana bir qiziqqan tilshunos G.Suit ingliz tili tarixiy fonetikasi va morfologiyasini davrlar bo'yicha quyidagicha ajratadi:

- a) eng qadimgi morfologiya "to'la okonchaniya" davri,
- b) o'rta - "okonchaniya" ning reduksiyaga uchrash davri,
- v) yangi davr - "okonchaniya" ning yo'qolish davri.

Qadimgi german tillari, ya'ni ilk o'rta asr tillari uchta yirik tarmoqqa bo'linadi:

1. Got tiliga kiruvchi sharqiy tarmoq.
2. Shimoliy tarmoq - unga qadimgi shved, qadimgi norveg, qadimgi island va qadimgi dat tillarini birlashtiruvchi skandinav tillari kiradi.
3. G'arbiy tarmoq - bunga qadimgi yuqori nemis tili, qadimgi ingliz tili, qadimgi sakson, quyi frank va friz tillari kiradi.

German qabilalari yirik qabila-ittifoqlarga birlashganlar. Ularning qabilalarini Pliniy o'zining "Naturalis Historia" asarida quyidagi olti guruhga ajratgan:

1. Vindillar - bunga sharqiy german qabilalari hisoblanmish vandallar, gotlar va boshqalar kiradi.
2. Gillevionlar - unga Skandinaviyada yashagan shimoliy german qabilalari bo'lmish svionlar, danlar va gautlar kiradi.
3. Germinonlar - Reyn daryosining sharqida yashagan alemannlar, shvablar va langobard kabilar kiradi.
4. Istveonlar (iskevonlar) - Reyn daryosining o'zanida yashagan frank qabilalari kiradi.
5. Ingevonlar - Shimoliy dengiz qirg'oqlarida yashagan sakslar, yutalar, angllar, frizlar, tevton va kimvriylar kiradi.
6. Bastarn va Pevkinlar vindillar guruhiga kiradi.

Germanlar quyidagi xududlarda yashashgan:

Angllar Shotlandiyaning bir oz qismidan Temza daryosining vodiysigacha, sakslar Temza daryosining janubiy qismlarida, yutalar orolning janubiy sharqiy qismi, ya'ni hozirda Kent nomini olgan xududda yashashgan. Frizlar esa

Britaniyada bosqinchilik ostida qolib, ular alohida davlat tuza olmaydilar. Lingvistik adabiyotlarning guvohlik berishicha, ular saks va yutalarga aralashib ketishgan. Vindallar Germaniyada, Bastarn va Pevkinlar Ruminiyada yashashgan.

Britaniya orollarining birinchi aholisi hind - yevropaliklarga aloqasi yo'q iberiylar bo'lgan. Ular so'nggi tosh asriga taaluqli bo'lgan neolitlarga borib taqaladi. Keyingi aholisi eramizdan avvalgi VII asrda Britaniyaga borib qolgan hind-evropaliklar qabilasi bo'lmish keltlardir.

Kelt tillari gallo-breton va gael deb ataluvchi ikki yirik guruhga bo'linadi. Gall tilida hozirgi Fransiya xududini egallagan Galliya aholisi so'zlashadi. Britan tillari o'z navbatida:

a) hozirgi paytgacha shimoliy Fransiyaning Bretan xududida saqlanib qolgan breton tiliga;

b) hozirda o'lik til sanalmish Kornuolla aholisi so'zlashgan korn tiliga;

v) Uels aholisi so'zlashuvchi valli tiliga tarmoqlanadi.

Gael guruhi a) tog'li Shotland (Erse), b) irland va v) Irland dengizining Men oroli aholisi so'zlashuvchi menk (Manx) tillariga bo'linadi.

Keltlar tomonidan Britaniyaning birinchi shaharchalari qurilgan. Rimliklar britaniyalik keltlar to'g'risida Piteasning asarlaridan bilib olishgan. Ular bilan birinchi duch kelish er. avv. I asarlarga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi 55 yili Yuliy Sezar Galliyani egallab, Britaniya orollariga yurish qilgan. Birinchi yurish muvaffaqichtsizlikka uchragandan so'ng eramizdan avvalgi 54 yili yana bir yurish bilan u keltlarni bo'ysundirib, muvaffaqiyat qozondi. O'sha paytdan boshlab to eramizning birinchi asrini 80 chi yillariga qadar rimliklar mamlakatni ichkarisiga kirib, uni ishg'ol qila boshladilar. Uels, janubiy tog'li Shotlandiya rimliklar qo'l ostidan tashqarida qalgan.

Rimliklar yo'llar qurishgan, xarbiylar uchun qurilgan binolar keyinchalik shaharlarga aylantirilgan. Bu shaharlar nomlarining ikkinchi komponenti lotincha castra (xarbiy lager) so'zidan kelib chiqqan: *Lancaster, Manchester, Chester, Rochester, Leicester, Winchester* va boshqalar.

O'sha davrda lotin tilidagi *via strata* (tosh yo'l, tosh yotqizilgan yo'l) so'zi asosida ingliz tiliga *stræt* va lotincha *vallum* so'zidan inglizcha *weall* so'zlari o'zlashtirildi.

Keltlar tomonidan rimliklarga qarshi birinchi qo'zg'olon eramizning 60 yillarida qirolicha Boadisiya tomonidan uyushtirilgan, lekin qo'zg'olon keltlarning tor mor qilinishi bilan yakunlangan.

Rimliklarining Britaniyadagi zo'rovonligi eramizning V asrigacha davom etgan. V asrning boshlarida rimliklar german qabilalarining (gotlarning) urushi xavfi ostida qoldi. Nihoyat, 408 yili Rimliklar Britaniyadan ketishdi va 410 yili Rimliklar xokimiyati german qabilalarining zarbasiga dosh berolmay quladi.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Germanlar to'g'risidagi ilk ma'lumotlar kim tomonidan yuborilgan?
2. Qadimgi german tillari qanday tarmoqlarga ajraladi?
3. German qabilalarini sanang.
4. Ingliz tilining rivojlanish davri qanday tavsiflanadi?
5. Rimliklar Britaniya orollariga qachon yurish ishlarini boshlaydi?
6. Britaniya orollarining daslabki aholisi kimlar bo'lgan?
7. Rimliklarga qarshi qo'zg'olon kim tomonidan uyushtirilgan?
8. Rimliklar Britaniyada qanday ijobiy ishlarni amalga oshirishgan?
9. Lotincha *castra* so'zi asosida qanday shahar nomlari vujudga kelgan?
10. Rimliklar Britaniya xududidan qachon chiqib ketgan?

**Mavzu: Britaniya orollarining germanlar tomonidan istilo qilinishi.**

Reja:

1. Britaniyani germanlar tomonidan ishg'ol qilinishi.
2. Anglo-sakson qirolliklari.
3. Qadimgi ingliz yozuvi.
4. Qadimgi ingliz yozma yodgorliklari.

**Kalit so'zlar:** Rim papasi, nasroniy dini, xristian missionerlari, Nortumbriya, Mersiya, Susseks, Esseks, Uesseks, Kent, Parker yilnomasi, anglo-sakson yilnomasi, Egberxt, Vinchestr, runik yodgorliklar, lotin alifbosi, Klermon-Ferran, Rutvell, unli, diftong.

Rimliklar Britaniyani xarbiy soqchiligidan ketgandan so'ng brittlar tashqi dushmandan himoyasiz qoldi. Britaniyani angllar, sakslar, frizlar va yutalar tomonidan bosib olinishi uning keyingi taqdirini belgilashda xal qiluvchi rol o'ynagan. Lekin shu davrda rimliklar Angliyani yana qaytadan bosib olish taraddudini ko'rishadi. Nihoyat, 597 yili Rim papasi Grigoriy I Angliyani qaytadan bosib olish va nasroniy dinini yoyish maqsadida xristian missionerlarini jo'natadi. Ammo germanlar bosib olish harakatidan xabar topgan rimliklar faqat dinni yoyishga musharraf bo'lishadi, xolos.

Taxminiy ma'lumotlarga ko'ra germanlar Britaniyani V asrning o'rtalarida bosib olishgan. Bu bosqinchilik haqida esa hech qanday yozma manbalar qolmagan. Ayrim ma'lumotlarga tayangan holda rim-kelt madaniyatini yakson qilingani, bosqinchilarning esa madaniyatdan ancha yiroq ekanligi haqida ayta olishimiz mumkin. Shuningdek, germanlar V asrdan boshlab Britaniya yerlariga yurish boshlab, VI asrda Britaniyaning tog'li xududlaridan, ya'ni Shotlandiya, Uels va Kornuolladan tashqarii barcha xududlarini egallab oladilar. Shu bilan birgalikda germanlar Britaniyada yettita qirollik tuzdilar. Bular - Bernikiya va Deyra qismlardan tashkil topgan Nortumbriya, markazda Mersiya, undan sharqroqda sharqiy Angliya, janubda Susseks, Esseks va Uesseks, janubiy sharqda Kent kabi qirolliklardir. Bu yettita davlat keyinchalik to'rtta asosiy qirollikka, ya'ni

Nortumbriya, Mersiya, Uesseks va Kentga birlashgan va keyinchalik bu qirolliklar chegaralarida 4 ta dialekt paydo bo'lgan.

Chunonchi, ushbu dialektlarda, masalan Nortumbriyada Xember daryosining shimolida yashagan angllar, Mersiyada Xember va Temza daryosi o'rtasida yashagan angllar, Uesseksda Temzaning janubidagi g'arbiy saksonlar, Kentda esa yutalar gaplashishgan. Dialektlarning keyingi rivoji esa xududdan tashqariga chiqmagan. Faqat qadimgi ingliz dialektlaridan friz dialekti batamom yo'qolib ketgan, chunki friz qabilasi barham topadi.

To'rttala anglo-sakson qirolliklari tinimsiz bir-birlari bilan urush olib borib, ustunlikni qo'lga olish uchun kurashganlar. Avvaliga mutloq hokimiyat goh Nortumbriyaga, goh Mersiyaga nasib etgan bo'lsa, IX asrning birinchi yarmiga kelib, aniqrog'i 828 yili Uesseks qirolligi hokimiyatni o'z qo'lga oldi. Qirol etib uessekslar avlodidan Egberxt, poytaxt Londondan 100 km janubiy-g'arbdagi Vinchestrni tayinlanadi. Uesseksning mavqe'i oshib borishi bilan anglosakson mamlakatlari o'rtasidagi o'tkir farqlar silliqlana boshlandi. Endilikda "angelcynn"-so'zi "angllar nasli" iborasi Britaniyaning barcha aholisiga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi, ular angllar yoki saksonlar davlatiga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar. "Englelond" so'zi esa butun mamlakat yoki davlat nomi sifatida e'tirof etila boshlandi.

VI asrning oxirlarida Britaniyani nasroniylashtirish boshlangan. VII asrning oxiriga kelib esa nasroniy dini butun mamlakatga yoyildi. Nasroniy cherkov va monastirlari ilm markazlariga aylandi. Monastirlar huzurida qo'lyozma kutubxonalar tashkil qilinib, rohiblar salnomalar yozish bilan shug'ullanganlar. Cherkovning madaniy ta'siri ostida yozuvga asos solindi.

Qadimgi ingliz yozuvi 2 ta davrga, ya'ni runik yodgorliklar va lotin alifbosi davriga bo'linadi. Eng qadimgi german yozuvi 24 ta runik belgilardan tashkil topib, ular tik va qing'ir chiziqlar shaklida bo'lgan. Bu belgilar toshga, daraxtga va metallga o'yib yozilgan. Undan ko'proq skandinav xalqlari foydalanganlar. Run yozuvining kelib chiqishi noma'lum, ammo taxminlarga ko'ra uni janubiy Yevropa alifbosining zamonaviy ko'rinishi deyishadi.

Run yozuvida asosan 2 ta yodgorlik topilgan, xolos. Yodgorlikning birinchisi janubiy-g'arbiy Shotlandiyaning Rutvell qishlog'i yaqinidan topilgan bo'lib, toshning yuzaki qismiga diniy she'rlar o'yib bitilgan yodgorlikdir.

Ikkinchisi Fransiyaning Klermon-Ferran shahri yaqinidan topilgan kit mo'ylovidan yasalgan bezak qutichaga qadimgi Rim, German afsonalari bitilgan, VIII asrga tegishli, hozirda Britaniya muzeyida saqlanuvchi yodgorlik sanaladi.

Rimliklar istilosi runik belgilarni yo'qolib, lotin alifbosini kirib kelishiga sabab bo'ldi. Qadimgi ingliz tilidagi  $\text{z}$  lotincha  $\text{g}$  bilan almashtirilgan. Xristian missionerlari Angliyaga lotin alifbosini olib kirishgan. Unga bir necha runik belgilarni ham qo'shishgan, jumladan,  $[\partial]$  va  $[\Theta]$  tovushlarini berish uchun runik belgi  $[\text{p}]$  ishlatilgan.

Qadimgi ingliz tilidagi unlilar va diftonglar qisqa yoki cho'ziq o'qilgan.

**Unlilar:**

a æ e i o u y á

ã æ ē ī ō ū ÿ

**diftonglar:**

ea eo ie io

ea eo ie io

**a** hozirgidek  $[\text{æ}]$ , **á** cho'ziq, hozirgi nemis tilidagi  $[\text{ú}]$  kabi o'qilgan. **á** so'zda **m** va **n** undoshlaridan oldin uchragan. Ba'zan **a** yoki **o** sifatida kelgan Masalan: mann, monn-odam, land, lond, nam, nom.

Undoshlar: lab - **p, b, m, f, v**; til oldi - **t, d, þ, ð, n, s, r, l**; til o'rta va oldi - **c, 3, h**.

**3** udoshi orqa qator unlilardan oldin va so'z o'rtasida **n** dan keyin  $[\text{g}]$  o'qilgan: *3ōd, sin3an*. Orqa qator unlilardan, **r** va **l** undoshlaridan keyin  $[\text{j}]$  o'qilgan: *da3as-кунлар, sor3*.

Qadimgi ingliz yozma yodgorliklari har to'rttala dialektida saqlanib qolgan, biroq ko'prog'i Uesseks dialektida saqlangan. Uesseksning nufuzini siyosiy nuqtai nazardan o'sishi IX asrning 2 chi yarmida davlatni boshqargan qirol Alfredning noyat qobiliyatli davlat arbobi bo'lganligi bilan izohlanadi. U tarjimonlar maktabini ochib, unga Fransiya dan yirik olimlarni jalb qilgan va ular bir qator tarjimalarni qirol Alfredning buyrug'iga binoan bajarganlar. Qirol Alfredning o'zi ham bir necha kitoblarni tarjima qilgan.



Yozma yodgorliklar nasriy va nazmiy turlarga bo'linadi. Ko'proq bu yerda nasriy yodgorliklarning nomlari dialektlar bo'yicha keltirilgan.

**Uesseks dialekti.** "Anglosakson yilnomasi". Bu yilnoma parallel salnoma sifatida VII asrdan buyon mavjud. Eng muhimi "Parker yilnomasi" deb nomlanadi va u IX asrgacha davom ettirilgan.

Qirol Alfred tomonidan IX asrda: 1) "Cura Pastoralis" (Ruhoniyning tashvishlari), 2) VI asrda yashagan Grigoriy I ning asarini lotin tiliga tarjima qilgan. Bu asarga qirol Alfred V asrda yashagan "Ispan rohibi Orosiyanning jahonshumul tarixi" deb nomlangan so'z boshi ham yozgan. Ushbu so'z boshiga yana Oxtxere va Vulfstan kabi sayyohlarning hikoyalari ham kiritgan.

X asrda abbat Elfrikning "Grammatika san'ati" va Rim faylasufi Boesiyaning (470-524y) "Falsafaning ovunchog'i" deb nomlangan asarlarini tarjima qilgan.

**Mersiya dialekti.** Bu dialektida IX asrdagi "Injil" ning to'rt kitobidan biri tarjima qilingan. xuddi shuningdek, cherkov madhiyalari ham o'girilgan.

**Nortumbriya dialekti.** Bunda "Injil" ning lotin alifbosidagi tarjimasi yozilgan.

**Kent dialekti.** Kent dialektida "Injil" dagi oyatlar hamda yuridik xujjatlarning tarjimalari amalga oshirilgan.

**Poetik yodgorliklar** - poetik yodgorliklarning ichida eng ahamiyatlisi va yirigi, noma'lum muallifning "Beovulf" deb nomlangan epik poemasi, rohib Kyunevulfning "Elena", "Yuliana", "Andrey" poemalarini hamda noma'lum muallifning "Yudif" poemasini sanab o'tish mumkin.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Rimliklar Britaniyadan ketgandan so'ng xudud kimlar qo'lida qoldi?
2. Germanlar Britaniyada qanday qirolliklarni tuzishgan?
3. Yakka qirollikni kim qo'lga kiritgan?
4. To'rttala qirollik asosida qanday dialektlar paydo bo'ldi?
5. Dialektlarda qilingan ishlarni sanang.
6. Poetik yodgorliklarni ayting.

**Mavzu: Qadimgi ingliz tilining leksik qatlami va o'rta asrlarda Britaniya orollarining skandinavlar tomonidan istilo qilinishi.**

Reja:

1. Qadimgi ingliz tili davri leksikasi.
2. Skandinav istilosi.
3. Skandinav tilining ingliz tili leksikasiga ta'siri

**Kalit so'zlar:** hind-evropa tillari o'zaklari, umumgerman, leksik qatlam, poetik leksika, ichki va tashqi so'z yasalishi, metateza, jo'g'rofik nom.

Qadimgi ingliz tili leksikasi deyarli german tillaridan kelib chiqqan so'zlardan iborat bo'lgan. So'zlarning ko'pchilik qismi hind-evropa tillari o'zaklaridan tashkil topgan.

Qiyoslang: Qadimgi ingliz tilida **mere** - dengiz, lot.- **mare**, rus.- **more** va boshqalar. Shuningdek, hind-evropa va umumgerman tillariga xos bo'lgan so'zlar ot, sifat va fe'l o'zaklardan tashkil topgan.

Hind-evropa o'zaklari kelib chiqishi jihatidan lotin tilidan o'zlashgan. Ular asosan quyidagi o'zaklar ko'rinishida bo'lgan:

- a) ot o'zak: fæder, modōr, nama, tun3e, fōt, niht, heorte;
- b) sifat o'zak: neowe, 3eon3, riht, lon3;
- v) fe'l o'zak: sittan, lic3an - yetmoq, beran.

Umumgerman so'zlari ham quyidagilardan tashkil topgan.

- a) ot o'zak: eorþe, land, sæ, heall, sand, earm - qo'l;
- b) sifat o'zak: earm – kambag'al, 3rene
- c) fe'l o'zak: findan, sin3an, steorfan - o'lmoq

Sof inglizcha so'zlar leksik qatlamni juda oz qismini tashkil etgan. Masalan: clipian - chaqirmoq

Umumgerman tillarida rod bo'lgan.

	muj. rod		jen. rod		muj. r	sred. r
	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
Im. pad.	sunu	sunā	duru	durā	stān	stānas
Род. пад.	sunā	sunā	durā	durā	stānes	stāna
Дат. пад.	sunā	sunum	duru	durum	stāne	stānum
Вин. пад.	sunu	sunā	durā	durā	stān	stānas

Leksik qatlamning oz qismini hind-evropa tillarida muqobili yo'q umumgerman tillariga xos bo'lgan so'zlar tashkil etgan. Bularga "*winter*-qish, *sadengiz*, *hus*- uy, *biter*-achchiq" kabi so'zlar kiradi.

Keltlar istilosi davrida ham kelt tilidan so'zlar o'zlashgan. Masalan: *dūn*, *dun* - *бурый* – *down*, *binn* – *bin* – *bog'cha*.

Kelt so'zlari jo'g'rofik nomlarda ham saqlangan. Masalan, gaelcha *amhiurdaryo* so'zi *Avon*, *Evan* nomi bilan, *uisge* - *suv EXE*, *USK*, *ESK* sifatida saqlangan. Poetik leksikada ko'plab so'zlar bir ma'noda mutloq sinonim bo'lib ishlatilgan. Masalan, Beovufda harbiy so'zi *rinc*, *mecz*, *secz*, *bez*, *freca*, *zuma* kabilar bilan berilgan.

Ingliz tili leksikasini boyishi ichki va tashqi so'z yasalishi orqali bevosita ortib bordi. Ichki so'z yasashda tilning ichki imkoniyatidan kelib chiqib yangi so'zlar hosil bo'ldi. Jumladan, qo'shimchalar qo'shishidan: *brotherhood*, *redynesse*, *herty*; so'z ma'nosini kengayishi *chiht-bola*, *xizmatkor* so'zining o'rta asrlarda *knight-risar*, *sellan-bermoqdan sellen-sotmoq* kabi usullar yordamida amalga oshdi.

Germanlar materikda bo'lgan paytlarida rimliklar bilan savdo aloqalarini amalga oshirishgan. Ana shu aloqalarning natijasida *win-vino*, lot.-*vinum*, *pere-nok*, lot.-*pira*, *pipor-qalampir*, lot.-*piper* kabi lotincha so'zlar birinchi marotaba german tiliga olib kirilgan.

Angliya nasroniylashtirilgan paytda qadimgi ingliz tiliga din va maktab ta'limi bilan bog'liq bo'lgan bir qator so'zlar kirgan: *scol-maktab*, lot.-*schola*, *mazister-ustoz*, lot.-*magister* so'zlari kelib chiqishi jihatidan grek tiliga mansub,

qadimgi ingliz tiliga bu so'zlar lotin tili orqali kirgan. Bu jarayon lotin tilidan kirib kelgan so'zlarning ikkinchi qatlamini tashkil qiladi.

Qadimgi ingliz so'zlarida metateza hodisasi ko'p uchragan. Masalan: **pridda** > **birda**; **rinnan** > **irnan**, **iernan**; **āscian** > **āxian**; **wascan** > **waxan**.

VIII asrning oxirlaridan boshlab skandinav vikinglari (qadimgi skandinaviyadagi harbiy dengiz askarlari) Angliyaga yopirilib kela boshladilar. "Anglosakson yilnomasi"ning shohidlik berishicha, Angliyaga birinchi bor daniyaliklar kelishgan.

Dengizda suzish mashqini yaxshi egallagan vikinglar Irlandiya va Fransiyaga allaqachon hujum qilishgan bo'lsa, Islandiya va Grelandiyani birinchi ochganlar va u yerda yashaganlar ham shular bo'lgan. Amerikani birinchi ochganlar ham vikinglardir.

IX asrning 60-yillariga kelib skandinavlar kata kuchga ega bo'lishgach, Angliya qo'shinlari va dengiz kuchlari ularga bas kela olmay qoldi. Faqat 876 yil Uedmordda bo'lib o'tgan jangda hech qaysi qo'shin g'alabaga erisholmagach, qirol Alfred skandinav bilan sulh tuzib, Angliyanig shimoliy-sharqiy qirg'oqlarinig bir qismini ularga bergan. Bu hudud "Danelag" - Daniya tasarrufidagi viloyat degan nomni oldi.

Danelag IX asrning ikkinchi o'n yilligigacha yashagan. 1013 yili Angliya qirolining ahdini buzib, hiyonat qilganligi sabab skandinavlar yana Angliyaga hujum qilishgan. Ingliz qirolu Etelred (tentak laqabli) Fransiyaga qochgan va 1016 yili skandinavlar Angliyani bosib oldi, qirol etib Daniya qirolining o'g'li Sveyna Kanut tayinlandi. Daniyaliklar 1042 yilgacha davlat tepasida turdilar. Bu paytga kelib Daniya qirolliklari inqirozga yuz tuta boshlagach, Angliya qirolligini anglosaksonlar avlodidan bo'lmish Eduard egalladi.

Danelagni egallagan skandinaviyaliklar bilan yaqindan aloqa qilish natijasida ingliz tiliga skandinav tilidan ko'plab so'zlar kirib kela boshladi. Bu so'zlar kundalik hayotda ishlatiladigan umumleksik sathni egallovchi leksemalardir. Skandinav tilidan o'zlashgan **fellow** < **ск. fedaza**, **husband** < **ск. husbunda**, **law** < **lazu**, **wrong** < **wrang**, **to call** < **kalla**, **to take** < **taka** so'zlar

qatoriga hozirgi standart ingliz tilidagi va boshqalarni kiritish mumkin.

Tovush tarkibi bo'yicha skandinav tillari ingliz tiliga yaqin bo'lgan va inglizcha so'zlar bilan o'zagi deyarli bir xil, qo'shimchasi har xil bo'lgan.

qadimgi inglizcha	skandinavcha
dōm	domr
fisc	fiskr
cynin3	konongr
stān	steinn
hlaford	lāvarðr
wind	vindr
da3	dagr
tima	time
æ3	egg
heorte	hiarta

Qolaversa, inglizcha so'zlar bilan dubletlar hosil qilgan. Masalan:

inglizcha	skandinavcha
shirt	skirt
from	fro
whole	hala

Shuningdek, skandinav tilidan **they** olmoshi, uning kelishiklardagi ko'rinishlari ham o'zlashgan. Skandinav tilidagi III-shaxs ko'plikdagi **þeir** olmoshi ingliz tiliga hie ko'rinishda o'tib, keyinchalik uning shakli **they** ga almashgan. Qaratqich kelishigidagi **þeirra** ingliz tiliga **hira**, so'ngra **their** sifatida, jo'nalish kelishigidagi **þeim** esa **him** ko'rinishda o'zlashgan va keyinchalik them ko'rinishga ega bo'lgan. Skandinavcha **þo** ingliz tiliga **þeah** ko'rinishda o'tib, keyinchalik uning shakli **thogh, though** ga almashgan.

Qadimgi ingliz tili leksikasida skandinav tilidagi at yuklamasi (hozirda predlog) infinitiv oldida qo'llanilgan. Masalan: **at do-bo'lmoq**. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, skandinav tilidan o'zlashtirilgan at do so'zi keyinchalik ado (vazifa, burch) so'ziga aylangan.

Skandinav so'zlari inglizcha jo'g'rofik nomlari ichiga kirishib ketgan. Masalan, **by** (skand. **bȳr** -daraxt) - *Kirkby, Derby*; **toft** (skand. cho'chqa boqadigan yer nomi) - **Langtoft**.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Qadimgi ingliz tili leksikasi qaysi tillardan kirgan so'zlardan tashkil topgan?
2. Qadimgi ingliz tili leksikasi qaysi turkumdagi so'zlardan tashkil topgan?
3. Germanlar materikda bo'lga paytlarida nima natijasida savdo-sotiqqa oid so'zlar o'zlashgan?
4. Xristian dinining yoyilishi natijasida din ta'limiga oid qanday so'zlar ingliz tili leksikasiga o'zlashtirildi?
5. Danelag sulhi nima uchun tuzilgan?
6. Skandinavlar Angliyani qachon bosib olgan?
7. Skandinavlar istilosi davrida qanday so'zlar o'zlashtirildi?
8. Nima uchun skandinav tilidan ingliz tiliga so'zlar oson o'zlashgan?
9. Qaysi skandinavcha so'zlar inglizcha jo'g'rofik nomlari ichiga kirishib ketgan?
10. Skandinav tilidan qaysi olmoshlar o'zlashgan?

**Mavzu: Britaniya orollarining normandlar tomonidan istilo qilinishi.**

Reja:

1. Normandlar istilosi.
2. Fransuz tilidan soʻz oʻzlashtirish.
3. Yozuv

**Kalit soʻzlar:** Qirol Eduard, Vitenagemot, Vilgelm I, Nortumbriya - shimoliy, Mersiya-markaziy, Uesseks - janubiy yoki janubiy gʻarbiy, davlat, sud, boshqaruv, harbiy, diniy, shahar hunarmandchiligi, san'at, oʻyin kulgi va tantanali marosimlarga oid atamalar, fransuz yozuvi an'analari.

1065-yili qirol Eduard oʻzidan hech qanday voris qoldirmay dunyodan oʻtdi. Oqsoqollar kengashi-Vitenagemot (donolar majlisi) olamdan oʻtgan qirolning uzoq qarindoshi boʻmish Garoldni Angliyaning qirolini etib sayladilar. Shu davrda qirollikka Normandiya gersogi Vilgelm ham davogar edi. Qirollikni egallash maqsadida 1066-yili Gostingesda boʻlib oʻtgan jangdan soʻng Garold qoʻshinlari tor-mor etildi, Garoldni oʻldirishdi va Vilgelm I Angliya qirolini boʻlib oldi.

Shahar va qishloqlardagi yerli aholi ingliz tilida soʻzlashishni davom ettiraverdilar. Qadimgi asr asosiy ingliz dialektlari oʻrta asrda ham saqlanib qoldi va oʻz vazifalarini muntazam bajarilar. Qirolliklar tugatilgandan soʻng oʻrta asr ingliz dialektlari joʻgʻrofik joylashuviga qarab atala boshlandi. Jumladan, Nortumbriya- shimoliy, Mersiya-markaziy, Uesseks - janubiy yoki janubiy gʻarbiy, Kent esa oʻz nomini Kent grafligining mavqei yuqori boʻlgani sabab oʻzgartirmadi. Normand bosqinchiligidan soʻng ingliz tili yagona ish yuritish va muloqot tili boʻlib qololmadi.

Ayniqsa, 1265-yillardan boshlab Angliyada ikki fransuz va ingliz tillari davlat tili bo'lib qoldi. Bu esa ingliz tiliga bevosita fransuzcha so'zlarni o'zlashishiga zamin bo'ldi. Fransuz tilidan quyidagi atamalar o'zlashdi.

1. Davlat, sud, boshqaruv atamalari: *prince, baron, noble, governen, royal, court, justice, judge, aquiten, sentence*. Lekin *king* va *queen* so'zlari inglizcha so'zlar bo'lgan.

2. Harbiy atamalar: *werre, army, castle, banner, victory*.

3. Diniy atamalar: *saint, frere, preyen, sermon, conscience*.

4. Shahar hunarmandchiligi atamalari: *bocher, peintee, tailor, shoemaker*.

5. San'at atamalari: *art, colour, figure, image*.

6. O'yin kulgi va tantanali marosimlarga oid atamalar: *plesir, dinner, soper, rosten*.

Fransuz tilidan hech qanday sohaga tegishli bo'lmagan umumleksik sathni tashkil qiluvchi so'zlar ham o'zlashgan. Masalan: *air, place, coveren, riviere, large, change*.

O'zlashgan so'zlarning aksariyati ingliz so'zlari bilan dubletlar hosil qilgan. Mavhum ma'nodagi dubletlarning eng xarakterli tomoni shundaki, inglizcha so'zlar aniqroq mavhum ma'no, fransuzcha so'zlar esa chuqurroq mavhum ma'no kasb etgan. Masalan:

*inglizcha*

*fransuzcha*

*work*

*labour*

*life*

*exisence*

Ayrim fransuzcha so'zlar rasmiy ma'noda ishlatilgan bo'lsa, uning ingliz tilidagi dubleti umumiste'mol leksikada qo'llanilgan. Masalan: *biginner* (anglosaksoncha) - *commencen* (fr.)

Fransuzcha so'zlar o'zlashishi jarayonida ingliz tilidagi xuddi shu ma'nodagi inglizcha so'zni yo tildan siqib chiqargan yoki ma'nosini o'zgartirishga sababchi bo'lgan. Masalan, fransuzcha *riviere* so'zi o'zlashishi natijasida ingliz tilida mavjud *ea* so'zi tildan izsiz yo'qolgan. Fransuzcha *montagne, automne*



so'zlarining o'zlashishi oqibatida inglizcha *beorz*, *hærfest* (kuz) сўзлари *beads* (marjon, mo'nchoq), *harvest* (hosil) ma'nosiga ko'chgan.

Cho'ponlar tilida ishlatiluvchi dublet so'zlarning eng xarakterli tomoni inglizcha so'zlar tirik hayvon, fransuzcha so'zlar esa shu hayvondan tayyorlanadigan mahsulot nomini bildirganligidir.

Buni esa V. Skot o'zining "Ayvengo" asarida ta'kidlab o'tgan. Masalan:

<i>inglizcha</i>	<i>fransuzcha</i>
<i>ox</i>	<i>beef</i>
<i>calf</i>	<i>veal</i>
<i>sheep</i>	<i>mutton</i>
<i>pig</i>	<i>pork</i>

Istilo davrida fransuz tilidan qo'shimchalar ham o'zlashtirilgan: **-ance, -ence, -ment, -ess, -et, -age, -e, -atum, -al** (-aille), **able, -ible, dis-, en-,** lotincha **in-**.

Shuni ham alohida aytib o'tish joizki, nafaqat fransuz tilidan, balki fransuz tiliga ham istilodan ancha asrlar oldin german so'zlari o'zlashgan. German so'zlari fransuz tili leksikasiga eramizning VI asrlarida Fransiyaning Galliya xududida yashagan burgund, frank, vestgot qabilalari tilidan o'zlashgan. Keltlardan kelib chiqqan galliya aholisi Galliyani bosib olgandan so'ng ular eramizning I asrigacha lotin tilida so'zlashgan. Gallar o'z madaniyati va tilini shu tariqa saqlab qolgan. Shunday qilib, german so'zlari fransuz tilida saqlangan. Normandlar istilosi davrida esa german tillaridan fransuz tiliga oldin o'zlashgan so'zlar fransuzcha shaklda ingliz tiliga o'zlashgan. Masalan, german tilidagi *marashkalk* so'zi fransuz tiliga *marshal* va istilo davrida *marshal* sifatida o'tgan.

Normand so'zlari parij dialektidan farq qilib, istilo davrida asosan ingliz tiliga normand tilidan so'z o'zlashgan. Masalan:

<i>parij</i>	<i>normand</i>	<i>parijdan</i>	<i>inglizga normanddan</i>
<i>chassier</i>	<i>cachier</i>	<i>chase</i>	<i>catch</i>
<i>chattel</i>	<i>catel</i>	<i>chattel</i>	<i>cattle</i>
<i>jardian</i>	<i>garden</i>	<i>garden</i>	

Normandlar o'zlari bilan fransuz tilining shimoliy normand dialektini olib kirishdi. Keyinchalik ushbu dialektning ingliz tili bilan chatishib ketishi natijasida anglo-normand dialekti muloqot tili bo'lib qoldi. Bu dialekt XIV asrning oxirigacha o'z vazifasni bajarib, so'ng izsiz yo'qolgan. Mamlakatda ma'lum vazifa bajargan uchinchi til lotin tili bo'lgan va u fan va cherkov tili bo'lib xizmat qilgan.

Davlat ahamiyatiga molik qog'ozlarni normand mirzalari olib borishgani uchun ular inglizcha matnlarni ko'chirishda o'zlariga tanish bo'lgan bir qator tovushlarni yozuvda ifoda etish uchun imloga ayrim yangiliklar olib kirishgan. Ular asosan uchta:

1. Fransuz tilida yo'q bo'lgan fonemalarni ifoda etish uchun: [θ], [ð].
2. Fransuz tilidagi mavjud fonemalarga o'xshab ketadigan, lekin ingliz tilida alohida belgilanmaydigan fonemalarni ifoda etish uchun.
3. Fransuz va ingliz tilida o'xshash, ammo sal farq qiluvchi fonemalarni ifoda etish uchun.

Fransuz rohiblari ko'plab fransuz yozuvi an'alarini ingliz tiliga olib kirdi, qolaversa ular hozirgacha qo'llanilmoqda.

1. [ú] tovushi qadimgi ingliz tilida û bilan berilib, rohiblar uni **ou** bilan almashtirgan: Qad. ing. *ût* – *out*, *hûs*- *hous*, *hlûd*- *loud*. Ba'zan **û** so'z oxiri yoki o'tasida **ow** ga almashgan: *cû*- *cow*, *hû*- *how*.

2. [u] tovushi **o** yoki **e** ga almashgan; *sum-som-some*, *sunu-sone*, *lufu-loue*, *onzunnen-bigonne*.

3. [e:] tovushi **ie** ga almashtirilgan: *feld-field*, *peof-thief*.

4. **p**, **ð** belgilari o'rniga **th** olib kirilgan: *bis-this*, *preo-three*.

5. Qadimgi inglizcha [v] tovushini beruvchi **f** **v** yoki **u** ga almashtirildi: *ofer-over-ouer*, *lufu-love-loue*.

6. [tf] afrikati o'rniga fransuzcha **ch** qabul qilingan: *tētfen-teach*.

7. [f] tovushi **sh**, **sch** ga almashtirilgan: *fip-ship-schip*.

8. [h] ni beruvchi **x** **h** yoki **gh** ga; *lixt-light*, *nixt-night*.

9. **c** undoshi [**k**] tovushini berishda **k** ga almashtirilgan: *drincan- drinken, cyning-king, cnāwan-knowen*.

10. **cw** o'rniga **qu** almashtirilgan: *cwellan-quellen – o'ldirmoq*.

11. [**j**] tovushini beruvchi **ʒ** o'rniga **y** qo'llamila boshlandi: *ʒiet-yet, ʒear-yēr, ʒē-yē*.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yuqorida almashtirilgan tovushlar qadimgi ingliz tilida qanday tovush bergan bo'lsa, XVII-XVIII asrgacha avvalgidek o'qilaverdi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Qirol Eduarddan so'ng davlat tepasiga kim qirol etib tayinlanadi?
2. Qirolliklar tugatilgandan so'ng o'rta asr ingliz dialektlari jo'g'rofik joylashuviga qarab qanday atala boshlandi?
3. Nima uchun Kent o'z nomini o'zgartirmadi?
4. Nechanchi yillardan boshlab Angliyada ikki fransuz va ingliz tillari davlat tili bo'lib qoldi?
5. Fransuz tilidan ingliz tiliga qanday atamalar o'zlashdi?
6. Mavhum ma'nodagi dubletlarning eng xarakterli tomoni haqida gapiring.
7. Fransuz tilida so'z o'zlashtirish assimilyasiyasi xususida gapiring.
8. Qadimgi ingliz yozuvi qanday va qancha belgilardan ibarat bo'lgan?
9. Qadimgi ingliz yozma yodgorliklarini sanang.
10. Normand mirzalari o'zlariga tanish bo'lgan fonemalarni yozuvda ifoda etish uchun ingliz fonetikasi (alifbosi) ga qanday o'zgarishlarni olib kiritdi?

**Mavzu: Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi.**

Reja:

1. Normandlar istilosi oqibatlarini.
2. Normand gertsogligi.
3. Kuchli qirol hokimiyati.
4. "Buyuk erkinlik partiyasi".
5. Parlament.

**Kalit so'zlar:** Normandiya gertsogligi, gertsog Vilgelm Vilgelm I, cherkov yepiskoplari, "Dahshatli sud kitobi", "Buyuk erkinlik partiyasi", Qirol Ioann, "Tenglar sudi", Buyuk qirollik kengashi.

Sizga ma'lumki, Fransiyaning Normandiya gertsogligi 1066 yilda Angliyani istilo qilgan edi. Shu yili gertsog Vilgelm Vilgelm I nomi bilan Angliya qirolini deb e'lon qilindi. Istilodan so'ng aksariyat mahalliy anglo-saks feodallarining yer-mulki tortib olindi. Ular ritsarlarga bo'lib berildi. Cherkov yepiskoplari ham almashtirildi.

Angliya yerlarining 1/7 qismini Vilgelm I o'z mulki qilib oldi. Istilochilarning Angliyani itoatda tutishlari uchun kuchli qirol hokimiyati zarur edi. Buni tushungan barcha yer egalari Vilgelm I ga sodiqlik haqida qasamyod qilganlar. Istilo shu tariqa Angliyada kuchli qirol hokimiyatini vujudga keltirdi. Bu esa o'z navbatida markazlashgan davlat barpo etish uchun asos bo'ldi. 1086 yilda Angliyada aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi. Aholi bu tadbirni qo'rqinch bilan qarshi oldi. Shu tufayli ro'yxat varaqalarini "Dahshatli sud kitobi" deb atadilar. Vilgelm I ning bu tadbirdan ko'zlagan asosiy maqsadi - mamlakatda haqiqatda qancha yer maydoni borligini aniqlash orqali xazinaga tushadigan daromadni ko'paytirish edi. Vilgelm I Daniyaning uzluksiz hujumlariga butunlay chek qo'ydi. Feodallarining o'zaro urushlariga barham berdi.

Vilgelm I ning oqilona siyosati kuchli qirollik hokimiyati vujudga kelishini ta'minladi. Avvalo, yirik shaharlar qirol hokimiyatini qo'llab-quvvatladilar. Buning asosiy sababi shaharlarning asosan qirolga qarashli yer-mulklarda joylashganligi edi. Qirol ham shaharlarni qo'llab-quvvatladi. Chunki, birinchidan, shaharlar qirolga katta daromad keltirgan bo'lsa, ikkinchidan, yirik feodallarga qarshi kurashda shaharlar qirolning tayanchi edi. Shu sababli feodallar shaharlarga tazyiq o'tkaza olmaganlar.

Qirol hokimiyatini ritsarlar ham qo'llab-quvvatlashgan. Kuchli qirol hokimiyati ularni katta yer egalari tajovuzidan muhofaza qilishning asosiy kafolati edi.

Xristian cherkovi, aholining erkin toifasi ham kuchli qirol hokimiyati tarafdori bo'lgan. Qirol sudining joriy etilganligi aholining erkin toifasini feodallarning o'zboshimcha mahalliy sudlaridan himoya qilgan.

Qirol hokimiyatining mustahkamlanishi bilan Angliya markazlashgan davlatga aylana borgan.

Yuqorida qayd etilgan omillar Angliyada markazlashgan davlat vujudga kelishini Fransiyaga nisbatan yengil ko'chishiga imkon bergan.

"Buyuk erkinlik partiyasi". Qayd etilgan omillar Angliyada siyosiy hayot osoyishta kechgan, degan fikrni anglatmaydi. Fransiyada bolganidek, Angliyada ham hokimiyat uchun, siyosiy huquqlar uchun murosasiz kurash davom etgan. Biroq bu kurash Angliyani bo'laklarga bo'lib yubora olmagan.

Qirol Ioann (1199 - 1216) davrida hukmron tabaqalar o'rtasidagi nizolar avjiga chiqqan. Bunga qator omillar sabab bo'lgan. Chunonchi, Angliyaning Fransiyaga qarshi urushda mag'lubiyatga uchrashi uning asosiy sababi bo'ldi. Bundan tashqari, yepiskop saylash masalasida Rim Papasi bilan munosabatlar keskinlashdi. Bu kurashda ham qirol yutqazdi. Papa qirolni vassal sifatida tavba qilishga majbur etdi. Bu mag'lubiyat qirolning obro'sini tushirib yubordi. Soliqlarning oshirilishi qirolni mayda va o'rta mulkdorlar madadidan mahrum etdi. Bu hol yirik yer-mulk egalari hokimiyatga bo'sunmaslik kayfiyatini vujudga keltirdi. Oqibatda 1215-yilda qirolga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi.

Qo'zg'olonchilar qirolni "Buyuk erkinlik partiyasi" deb ataluvchi hujjatga imzo chekishga majbur etdilar.

Unga ko'ra, feodallar o'z yer-mulklarini meros qilib qoldirish huquqiga ega bo'ldilar.

Mamlakatda "Tenglar sudi" deb ataluvchi sud joriy etildi. Bu sudning qarorisiz mamlakatning birorta erkin fuqarosi qamoqqa olinmas, mol-mulki musodara etilmas yoki mamlakatdan haydab chiqarilmas edi. Shaharlarga savdo-sotiq erkinligi huquqi berildi. Shuningdek, shaharlar o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'ldilar. Uzunlik va og'irlik o'lchovlarining bir xilligi ta'minlandi. Erkin dehqonlar va ritsarlarga qarashli yerlar ularga kafolatlab berildi.

Mamlakatda Buyuk qirollik kengashi ta'sis etildi. Uning roziligisiz qo'shimcha soliqlar joriy etilmas yoki mavjud soliqlar miqdori oshirilmas edi.

**"Buyuk erkinlik partiyasi"** faqat qaram dehqoalar hayotida hech qanday o'zgarish yasamadi. Shunday bo'lsada, bu *partiya* Angliya hayotida juda muhim rol o'ynadi. Partiya mamlakatni bo'lib yuborishga emas, balki uning markazlashgan maqomini to'la saqlab qolishga xizmat qilgan. Mamlakat bunga barcha erkin tabaqalarning ishtirokini ta'minlash orqali erishgan.

Partiya keyinchalik Angliyada *parlamentning* vujudga kelishida, qonunchilikning mustahkamlanishida poydevor vazifasini o'tadi.

Angliya parlamenti. Angliya qirollari "Buyuk erkinlik partiyasi" qoidalarini bajarishni aslo istamaganlar. Chunki tarixda hech qachon o'z hokimiyatining cheklanib qolishini istagan qirol o'tgan emas. Binobarin, Angliya qirollari ham bundan mustasno bo'lmaganlar. Natijada yana hokimiyat uchun kurash boshlangan. Bu kurash 1265 yilda mamlakatda parlament joriy etilishiga olib kelgan. Parlament 1295 yildan boshlab (qirol Eduard I davrida) muntazam chaqirilib turiladigan bo'ldi.

1297 yilda parlament soliqlarni tasdiqlash huquqini qo'lga kiritdi.

XIV asrdan boshlab parlamentga qonun chiqarish huquqi ham berilgan. Bundan tashqari, parlament vazirlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar bo'yicha Oliy sud vazifasini ham bajara boshlagan.

1343- yildan ikki palataga bo`lingan.

### ***Yodda tuting***

*Quyi palata, umum palata, yuqori palata esa lordlar palatasi deb ataldi.*

Umum palatasiga har bir graflik ikki nafar ritsarni vakil qilib yuborardi. Har bir shahar ham ikkitadan vakil yuborish huquqiga ega bo`ldi. Lordlar (oliy tabaqalar) palatasi oliy martabali ruhoniylar, yirik yer egalarining vakillaridan iborat bo`lgan. Quyi palata o`zining roziligisiz soliq joriy etilmasligi to`g`risida qonun qabul qilinishiga erishgan.

### ***Atamalar mazmunini bilib oling***

**Parlament** (frantsuzcha so`z bo`lib, gapirmoq degan ma'noni anglatadi) - davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati.

**Partiya** (yorliq) - qo`lyozma hujjat.

**Yepiskop** - cherkovni boshqaruvchi ruhoniy.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. XI asrning oxiriga kelib Angliya yerlarining qancha qismini Vilgelm I o`z mulki qilib oldi.
2. Angliyada kuchli qirol hokimiyatini vujudga kelishiga qanday omil sabab bo`ldi?
3. Normandlar aholi bu tadbirni qo`rqinch bilan qarshi olib, ro`yxat varaqalarini qanday atashdi?
4. Vilgelm I ning bu tadbirdan ko`zlagan asosiy maqsadi nima bo`lgan?
5. Angliya markazlashgan davlatga aylana boshlashiga nima sabab bo`ldi?
6. Qirol Ioann davrida hukmron tabaqalar o`rtasidagi nima uchun nizolar kelib chiqdi?
7. Qirolga qarshi qo`zg`olon qachon ko`tarildi?
8. Qo`zg`olonchilar qirolni nimaga majbur qilishdi?
9. Mamlakatda qanday sud joriy etildi?
10. Parlament qachondan ikki palataga bo`lingan?

7-ma'ruza (2 soat)

**Mavzu: Ingliz tilining dunyo xududlariga tarqalishi.**

Reja:

1. London - ingliz tilida gaplashuvchi xalq vatani.
2. London - mamlakatning muhim madaniy markazi.
3. Ingliz tilining rivojlanishi.
4. Hozirgi ingliz tilining xududiy shevalari.
5. Shotlandiya va Irlandiyagaga ingliz tilining tarqalishi.
6. Amerika va Kanadaga ingliz tilining tarqalishi.
7. Avstraliya va Yangi Zelandiyaga ingliz tilining tarqalishi.

**Kalit so'zlar:** Katta London, London havzasi, keltlar qishlog'i, London birjasi, Xitrou va Gatvik aeroportlari, London universiteti, Siti universiteti, Vestminster abbatligi, Bakingem va Sent-Jeyms saroylari, Yangi Vestminster sobori, Bannorkbern, Robert Bryus, Iakov I, Barbur, Robert Berns, Irland ittifoqi, Eyre.

London, Katta London — Buyuk Britaniya poytaxti, mamlakatning muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi. Temza daryosining quyi oqimida, Shimoliy dengizdan 64 km masofada, London havzasi deb ataluvchi tekislikning markaziy qismida joylashgan. Poytaxt atrofidagi shaharlar va Siti bilan ma'muriy jihatdan alohida metropoliten grafligi qilib ajratilgan Katta Londonni tashkil etadi. Aholisi 7 mln. kishi (1999). Iqlimi qishi yumshoq, yozi unchalik issiq bo'lmagan dengiz iqlimi. Yanv.ning o'rtacha temperaturasi 5,3°, iyulniki 18,9°. Yillik o'rtacha yog'in 645 mm.

Rimliklar bosib olgunga qadar (milodiy 40—60-yillar) hozirgi London o'rnida keltlar qishlog'i bo'lgan. Rimliklar hukmronligi davrida London dastlab harbiy lager, so'ng dare va dengiz porti bo'lgan. 4-asr o'rtalaridan Rim Britaniyasining muhim siyosiy markazi. Anglo-sakslar istilosi davrida (5—6-asrlar) shahar vayron qilingan va tezda qayta tiklangan. 7-asr boshlaridan muhim savdo va siyosiy markazga aylangan. 11-asr oxiri12-asr boshlarida London



Angliyaning rasmiy poytaxtiga aylandi. 16-asrda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan Londonda yirik savdo kompaniyalari vujudga keldi; 1571 yilda London birjasi ochildi. Angliya savdosining 2/3 qismi oʻtadigan London porti jahon ahamiyatiga ega boʻla boshladi. Sanoatning jadal rivojlanishi va Buyuk Britaniyaning muhim sanoat, savdo va moliyaviy jihatdan qudratli davlatga aylanishi (18-asr oxirlari) Londonning dunyodagi yirik dengiz porti, savdo va moliyaviy markaz sifatidagi ahamiyatini oshirdi. 1-jahon urushi va undan keyingi davrlarda Londonda metallsozlik, mashinasozlik, jumladan, avtomobilsozlik, aviatsiya, elektrotexnika kabi yangi sanoat tarmoqlari rivojlandi. 2-jahon urushi davrida London nemis-fashistlar aviatsiyasi tomonidan bombardimon qilingan. Oʻsha davrda harbiy sanoat, ayniqsa, aviatsiya, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari rivojlandi.

London — Buyuk Britaniyadagi tinchlik uchun kurash markazlaridan. 1949 yildan boshlab, shaharda tinchlikni himoya qilish boʻyicha milliy kongress va konferensiyalar chaqiriladi. London — diplomatik uchrashuvlar, majlis va xalqaro konferensiyalar oʻtkaziladigan joy. London — xalqaro ahamiyatga ega transport yoʻllari tuguni. Temza daryosining Shimoliy dengizga quyilish yeridagi yirik port (yillik yuk ortib-tushirish 60 mln. t). Xitrou va Gatvik aeroportlari xalqaro ahamiyatga ega. Katta London mamlakatdagi ishlab beruvchi sanoat mahsulotining qismini beradi.

Shaharda poytaxt aholisi ehtiyojlarini taʼminlash, London porti orqali keltiriladigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash bilan bogʻliq sanoat tarmoqlari ayniqsa rivojlangan. Mashinasozlik (avtomobilsozlik, aviasozlik, priborsozlik), shuningdek, elektrotexnika va radiotexnika sanoati korxonalari bor. Stanoksozlik va kema taʼmirlash ham muhim ahamiyatga ega. Chetdan keltiriladigan xom ashyo hisobiga rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash va kimyo sanoati korxonalari ishlab turibdi. Tikuvchilik, koʻn-teri, poyabzal, mebel, poligrafiya, farmatsevtika, sement, oziq-ovqat va boshqa sanoat korxonalari mavjud. Harbiy sanoat rivojlangan. London porti orqali chetga sanoat mahsulotlari chiqariladi, chetdan neft, oziq-ovqat, oʻrmon mahsulotlari va boshqa keltiriladi.

Londonda dunyoda eng birinchi metropoliten qurilgan (1860—63). Londonda turli moliyaviy, savdo, sug'urta kompaniyalari, banklar, savdo va fond birjalari, nashriyotlar, gaz. tahririyatlari, xalqaro va Britaniya monopoliyasi va xorij firmalari filiallari to'plangan.

London — mamlakatning muhim madaniy markazi. Bu yerda London universiteti, Siti universiteti, politexnika institutlari, Qirollik drama san'ati akademiyasi, Qirollik musiqa akademiyasi, London Qirollik jamiyati, shuningdek, ko'pgina ilmiy jamiyatlar va muassasalar bor. Universitetlar qoshida yirik kutubxonalar mavjud. 30 dan ortiq muzey, jumladan, Britaniya muzeyi (1753), tabiat muzeyi, ilmiy muzey, geologiya muzeyi, London muzeyi, Milliy galereya va boshqa, yirik konsert zallari, teatrlar ishlab turibdi.

London yagona markazdan emas, balki mustaqil shaharchalar va aholi punktlarining sekin-asta qo'shib ketishidan tashkil topganligi bilan boshqa yirik shaharlardan farq qiladi. Tarixiy markazlari — Vestminster (siyosiy idoralar, Vestminster abbatligi, Bakingem va Sent-Jeyms saroylari, Yangi Vestminster sobori va boshqa joylashgan) va Siti (bank, birja, yirik monopoliya idoralari o'rnatilgan).

Qadimgi binolar orasida gotika uslubida qurilgan Sautuork sobori (13—15-asrlar), Xemptonkort saroyi (1515—36, 1689—94) diqqatga sazovor. Vestminsterdagi Uest-Endda mehmonxonalar, savdo ko'chalari, kollejlari, muzeylar, tomoshaxona-sayilgohlar joylashgan. Klassitsizm, neoklassitsizm namunalari saqlangan. Zamonaviy uslubda ko'plab binolar qurilgan.

Londonda 1908 yilda 4-Olimpiya o'yinlari, 1948 yilda 14-Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan.

Ingliz tili (ingl. English) — hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tili. Avstraliya, AQSH, Birlashgan Qirollik, Hindiston, Irlandiya, JAR, Kanada, Liberiya, Malta va Yangi Zelandiyaning rasmiy tili. Ingliz tili dunyodagi eng ko'p ishlatiladigan tillar ichida 3-o'rinda turadi (Ispan hamda Mandarin Xitoycha tillardan keyin). Yevropa Ittifoqining asosiy tili.

Ingliz tili BMTning rasmiy ish yuritish tillaridan biri, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Osiyo va Afrikadagi ko'pgina mamlakatlarda tarqalgan. Bu tilda yer yuzidagi 400 milliondan ortiq kishi gaplashadi (1992). Buyuk Britaniya va Shim. Irlandiya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada (fransuz tili bilan birga), Irlandiya (irland tili bilan birga), Hindiston va 15 ta Afrika davlati (JAR, Nigeriya, Gana, Uganda, Keniya, Tanzaniya va b.) da rasmiy til sifatida qo'llaniladi.

Ingliz tili mil. av. 5—6-asrlarda kad. german qabilalari (ingliz, saks va yut) ning tillaridan kelib chiqqan. Ingliz tili Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi janubiy-sharqiy Shotlandiya yerlari avvalgi Norzumbriya qirolligida vujudga keldi. Tarixiy manbaalarga ko'ra, eski ingliz tili juda ko'plab shevalar turkumini o'z ichiga oladi. Qadimiy ingliz tili (7—11-asrlar) anglosaks tili deb atalgan va 4 shevaga ega bo'lgan: nortumbriy, mersiy, uessek va kent. 9—11-asrlarda uesseks shevasi asosida adabiy ingliz tili shakllangan. Bu shevalar turkumi Buyuk Britaniyaning sharqiy qirg'og'iga nemis qabilalari bo'lmish anglo-saksonlar tomonidan keltirilgan. English (ingliz) so'zi Angles so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu xalqning ajododlar yurti Angeln hozirgi Schleswig-Holstein bo'lgan. Ingliz so'zlarning ko'pchiligi Lotin tilidan olingan, vaholanki lotin tili Xristian Cherkovi hamda Yevropa tafakkur doirasining tili edi. Vikinglarning 8 hamda 9-asrdagi istilosidan keyin ingliz tili eski norz-tilining bir qismini o'zlashtirdi. Angliyaning 11-asrda Normandlar tomonidan egallanilishi norman fransuz tilininin ingliz tili bilan qorishishiga olib keldi. Aynan shu sababli ingliz tili lug'aviy va imloviy tarzda roman tillar turkumiga aloqador. O'rta ingliz tili (12—15-asrlar) urg'usiz unilarning reduksiyaga uchrashi natijasida fe'llik so'z birikmalari ko'p o'zgarishlarga uchragan. 16—17-asrlarda yangi ingliz tili yuzaga kelgan. Buyuk Britaniyaning 17 va 20-asr o'rtasidagi kuchli rivojlanishi hamda AQSHning 20-asrdagi dunyoviy tasiri ostida ingliz tilining xalqaro nufuzi oshdi.

Hozirda ingliz tili o'z hududiy shevalariga ega. Buyuk Britaniyada shotland shevasi, shim., jan., markaziy shevalar guruhi, AQShda Sharqiy, O'rta Atlantika (markaziy), jan.sharqiy, o'rta, g'arbiy shevalar guruhi mavjud. Ingliz tili fonematik

tizimida o'ziga xos unlilar va undoshlar mavjud. Boshqa german tillaridan ingliz tili analitik qurilish belgisi bilan farqlanadi. Grammatik munosabatlarni ifodalashda yordamchi so'zlar (artikl, yordamchi fe'llar, predloglar) va so'z tartibi katta ahamiyatga ega. Ingliz tili boshqa tillar (lotin, fransuz, italyan, ispan va b.)dan 70 % ga yaqin so'z qabul qilgan. Ingliz tilining amerikacha variantini Buyuk Britaniya variantidan farqini shu bilan izohlash mumkinki, Shim. Amerikaga dastlab ko'chib kelganlar (1607) London va uning atrofidan, keyingilari esa Shim. Britaniya va Irlandiyadan kelishgan. AQSH tilida Britaniyadagi singari yorqin ifodalangan shevalar yo'q. Prof. X. Kurat taxriri ostida chiqqan "AQSH va Kanadaning tilshunoslik atlas" da (1939) yetti sheva, shu jumladan, tarqalishi hududi jihatidan eng salmoqli bo'lgan AQShning markaziy va shim. viloyatlari shevalari ajratib ko'rsatilgan; u AQShda asosiy adabiy me'yor hisoblanadi. Ingliz tilining amerikacha va Buyuk Britaniya variantlari o'rtasidagi farq leksikada va ma'lum darajada fonetikada namoyon bo'ladi; grammatikasidagi farq sezilarli emas. Ingliz tilining mavjud Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va JAR adabiy variantlari xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Ingliz tili yozuvi lotin alifbosi asosidadir. Ingliz tili alifbosi lotin yozuviga asoslangan va 26 ta harfdan iborat: A, B, C, D, E, F, G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R, S, T, U, V, W, X, Y, Z.

**Shotlandiyaga ingliz tilining tarqalishi.** Britaniyaga kelib keltlar bilan kelib qolgan kelt asiri skotlar Shotlandiyaning tub aholisi piktlar bilan jang olib boradilar va IX asrda skotlar g'alabasi bilan yakunlanadi. Shu vaqtdan boshlab Shotlandiya Angliyaga qo'shib olinadi. XIII asrning oxirida ingliz qiroli Eduard I Shotlandiyani birinchi bor o'ziga bo'ysindirishga urinadi. Bu harakat vaqtincha bo'lib, 1314 yil shotlandlar Bannorkberndagi jangda Robert Bryus boshchiligida g'alabaga erishdi. Shotlandiya Angliyaga 1603 yil Styuartlar sulolasidan bo'lgan Iakov I Angliya qiroli bolganda qo'shildi. Shunday bo'lsada Shotlandiya 1707 yilgacha to'la qo'shilmagan.

Normandlar istilosi davrida Shotlandiyaning janubiy quyi qismida (Lowlands) aholi nafaqat skotlar, balki bu erga o'z tilisi bo'lgan ingliz tilini olib

kelgan angllardan tashkil topdi. Shu tariqa ingliz tili ham shu xududga tarqalib davlat ikki tilli bo'ldi. Biri shotlandlar ko'p yillar mobaynida gaplashgan va hozir ham gaplashuvchi gael, ikkinchisi ingliz tilidir.

Shotland tili nortumbriya dialekti asosida yuzaga keldi. Birinchi bor yozma yodgorliklar XIV asrda Barbur tomonidan ("Bryus") yozildi. Keyinchalik Robert Berns (1759-1796) shotland tilida asarlar yozdi.

Tilshunoslarning bazilari shotland tilini ingliz tilining dialekti deyishsa, ayrimlari mustaqil til deyishadi. XIV asrga kelib shotland tili ingliz tilining shimoliy dialektida oz muncha farq qildi, xolos. Bu davrga nisbatan ingliz tilining dialikti sifatida e'trof etish mumkin. Biroq ingliz tilining milliy til sifatida rivojlanishi oqibatida uning ko'plab shevalarini paydo bo'lishiga olib keldi va Shotlandiyada keng miqyosda ishlatila boshlandi. Oqibatda, shotland tili Shotlandiyaning millat tili bo'lsada, nasr va nazmda ko'proq qo'llanilmoqda. Bu esa, shubhasiz, shotland tilini ingliz tilining varianti deb qarashga asos bolishi mumkin.

**Irlandiyada** ingliz tilidan ham so'zlashuv, ham rasmiy, qolaversa, gael tili qatorida ikkinchi til sifatida foydalaniladi. Ingliz tili XII asrda Irlandiyani inglizlar tomonidan bosib olinishi bilan yoyila boshlagan. Shunday bo'lsada yerli aholi irland (gael) tilida so'zlashishni davom ettirdi, ingliz tili esa davlat ahamiyatiga oid xujjatlar tili va rasmiy til bo'lib xizmat qildi. XIX asrning oxirida irland tilini mavqesini ko'tarish bo'yicha choralar ko'rilib, XX asrda "Irland ittifoqi" tuzildi.

1922 yili irlandlar ko'p bora kurashishi natijasida Irlandiya mustaqillikka erishdi. 1937 yil Olsterdan tashqari Irlandiyaning xududlari mustaqil bo'lib, "Eyre" nomini oldi.

Asrlar davomida Irlandiyada ingliz tili gael tili bilan birgalikda qo'llanildi. Hozirga kelib Irlandiyada irland tilida gapiruvchilar soni ko'pchilikni tashkil etadi va bu til ingliz va gael tillari bilan bir qatorda davlat tili sanaladi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. London Angliyaning qayeriga joylashgan?
2. Rimliklar bosib olgunga qadar (milodiy 40—60-yillar) hozirgi London o'rnida qanday qishloq bo'lgan?
3. Rimliklar hukmronligi davrida London dastlab qanday joy hisoblangan?
4. Qachon London shahri vayron qilingan va tezda qayta tiklangan?
5. Qachon London Angliyaning rasmiy poytaxtiga aylandi?
6. Nima uchun London mamlakatning muhim madaniy markazi sanaladi?
7. Ingliz tili dunyo tillari orasida qanday ahamiyatga ega?
8. Hozirda ingliz tili qanday o'z hududiy shevalariga ega?
9. Shotlandiya va Irlandiyaga ingliz tilining tarqalishi haqida fikr bildiring.
10. Ingliz tilini Amerika, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiyaga tarqalishi sabablarini ko'rsating.

## **Mavzu: Roman filologiyasiga kirish**

Reja:

1. Roman tillari haqida umumiy tushuncha.
2. "Romaniya" atamasining kelib chiqishi
3. Roman tillarining soni.
4. Roman tillarini tasniflash muammolari.

**Kalit so'zlar:** roman tillari, lotin tili, rasmiy til, so'zlashuv tili, kreol tillari, arumin, meglenit, istriot, friul, tirol, shveysar, Rim provinsiyasi, genetik qarindonlik, romaniya, dialekt, sard yoki sardin, provansal, galisiy, g'arbiy va sharqiy tarmoq, pinjin tillar.

**Roman tillari** — hindevropa tillari oilasiga mansub qardosh tillar guruhi; ularning barchasi lotin tilidan kelib chiqqanligi, umumiy rivojlanish qonuniyatlari va til qurilishidagi ko'plab umumiy unsurlar bilan o'zaro bog'lanadi. "Roman" termini (lot. romanus — "Rimga tegishli", "Rim imperiyasiga alokador" ma'nosida) dastlab, ilk o'rta asrlarda, klassik lotin tilidan hamda german lahjalaridan farq qiluvchi xalq tilini ifodalagan; Ispaniya va Italiyada Roman tillari "yangi lotin tillari" deb ham atalgan. Roman tillari 60 dan ortiq mamlakatda (mas., fransuz tili 30 ta, ispan tili 20 ta, portugal tili 7 ta, italyan tili 3 ta mamlakatda) milliy yoki rasmiy til sifatida qo'llanadi: ularda 600 mln.dan ortiq kishi so'zlashadi.

Tilshunoslikda Roman tillarining soni haqida yagona fikr yo'q. Hozirgi tegishli ishlarda ular ko'pincha 12 ta deb ko'rsatiladi: ispan, galisi(ya), portugal, katalan, oksitan (provansal), fransuz, italyan, sard, retoroman, rumin, moldavan va

19-a.dan ulik hisoblanadigan dalmat tillari. Roman tillarining bir tekis rivojlanmaganligi ham ularni chegaralash, aniq sonini belgilashni qiyinlashtiradi.

Roman tillarining tarqalish hududi 3 ga ajratiladi: 1) "Eski Romaniya" — Yevropaning Rim imperiyasi tarkibiga kirgan va romancha nutqni saqlab qolgan qismi, Roman tillarining shakllanish markazi (Italiya, Portugaliya, deyarli butun Ispaniya va Fransiya, Belgiyaning janubi, Shveysariyaning g'arbi va janubi, Ruminiya va Moldaviya respublikalarining asosiy qismi, Shim. Gretsiya, Makedoniya kabilar); 2) "Yangi Romaniya" — 16—18-asrlarda mustamlakachilik harakatlari natijasida Yevropadan tashqarida Roman tillarida so'zlashuvchi aholi paydo bo'lgan hududlar (Shim. Amerikadagi Kanada va Meksika mamlakatlari, Markaziy Amerikaning asosiy qismi, Jan. Amerika, Antil orollari); 3) mustamlakachilik siyosati natijasida Roman tillari mahalliy tillar bilan birga rasmiy tilga aylangan mamlakatlar (Afrikaning kattagina qismi, Jan. Osiyo va Okeaniyadagi uncha katta bo'lmagan hududlar).

Roman tillari Rim imperiyasi tarkibiga kirgan hududlardagi xalqona lotin tilining davomi va tadrijiy rivoji hisoblanadi. Roman tillari rivojida 4 bosqich farqdanadi: 1) mil. av. 3-asrda mil. 5-asrgacha — romanlashuv davri — mahalliy tillarning xalqona lotin tili bilan almashinishi. Bo'lajak Roman tillari o'rtasidagi tafovutlar shu davrdayoq namoyon bo'la boshlaydi; 2) 5—9-aslar — Roman tillarining Rim imperiyasi parchalanishi va varvar davlatlarining tashkil topishi sharoitidagi shakllanish davri. Roman tillariga superstrat unsurlar (ya'ni bosqinchi germanlar, vestgotlar, franklar, burgundlar, lombardlar va boshqalar)ning kuchli ta'siri bilan ajralib turadi. Roman tillarining lotin tilidan va bir-biridan aniq farqli jihatlari kuchaya boradi; 3) 10—16-aslar — Roman tillarida yozuvning rivojlanishi, ijtimoiy vazifalarining kengayish davri. Dastlabki matnlar fransuz tilida 9-asrda, italyan va ispan tillarida 10-asrda, provansal, katalan, sard tillarida 11-asrda, portugal va galisi tillarida 12-asrda, retoroman tilida 14-asrda, rumin tilida 16-asrda paydo bo'ladi. Lahjalaridan yuqori turuvchi adabiy tillar shakllanadi; 4) 16—19-asrlar — milliy tillarning shakllanishi, me'yorlashuvi, boyib borishi



davri. Roman tillari rivojlanishi notekis bo‘lgan: ba’zi tillar ancha erta milliy tilga aylanib, hatto keyinroq xalqaro til vazifasini ham bajargan bo‘lsa (fransuz va ispan tillari), ba’zilari O‘rta asrlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, keyinroq o‘z mavqelarini yo‘qotgan va 19—20-asrlarda qaytadan adabiy til maqomiga ega bo‘lmoqda (provansal, katalan va boshqa tillar). Yevropadan tashqaridagi boshqa hududlarda Roman tillarining mahalliy variantlari (Mas, Kanadada fransuz tilining, Braziliyada portugal tilining, Markaziy va Jan. Amerikada ispan tilining variantlari) paydo bo‘ldi.

Roman tillari lotin alifbosidan foydalanadi. Bolqonroman tillarida yozuv kirillitsa asosida shakllangan. 1860 yildan keyin rumin tili, 1989 yildan moldavan tili lotin alifbosiga o‘tgan. Lotin tilida bo‘lmagan tovushlarni ifodalash uchun turli xil harf birikmalari, diakritik belgilar joriy etilgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, roman tillari deb nomlangan tillar guruhi boshqa jahon tillari orasida alohida o‘rin tutadi.

Roman tillari kelib chiqishi jihatidan bitta manba'dan tarqalgan tillardir. Bu tillarning barchasi lotin tilining og‘zaki nutq shakli asosida yuzaga kelgandir.

Roman tillarida Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Ruminiya, Fransiya kabi g‘arbiy Yevropa va shuningdek, Lotin Amerikasidan Argentina, Braziliya, Kuba, Meksika, Peru kabi davlatlarning aholisi so‘zlashadilar. Moldaviyaning rasmiy davlat-Moldavan tili ham roman tillari guruhiga kiradi.

Roman tillarining genetik qarindoshligini quyidagi misollar orqali ko‘rish mumkin:

<i>Lotin</i>	<i>Fransuz</i>	<i>Ispan</i>	<i>Portugal</i>	<i>Italyan</i>	<i>Rumin</i>	<i>Moldavan</i>
unus,una	Un,une	Un(o), una	Um, uma	uno, una	Un(u), una	yh(y), yha

**Umumiste’mol leksikasi**

homo	Home	Hombre	homen	uomo	om	OM
------	------	--------	-------	------	----	----

Eramizning V-VI asrlaridagi so'nggi rim tarixchilarining asarlarida "Romaniya" (Roma-Rim) atamasi uchraydi. Bu atama bilan Rim davlati tasarrufiga kiruvchi xududlar nomlangan. Lingvistik nuqtai-nazardan "Romaniya" atamasi lotin tili tarqalgan chegaralarni ham aks ettirgan. hozirgi zamon tilshunoslari, etnograflari va tarixchilari ushbu atamadan "roman tillari tarqalgan xududlar" atamasining qisqartirilgan muqobili sifatida foydalanmoqdalar.

Roman tillarining soni masalasi muammoli masala hisoblanadi. Buni biryoqlama hal etish "til" va "dialekt" tushunchalarini bir-biridan ajratishning yetarli omillarini yo'qligidadir. Shu paytgacha taklif etilayotgan omillar, ya'ni o'zaro tushunish yoki tushunmaslik, ma'lum fonetik sathlarning mavjudligi, yoki adabiy me'yorning ishlatilish yoki ishlatilmasligi yetarli deb hisoblanmaydi. Masalan, Italiyaning shimolida yashovchi qishloq fuqorosi janubdaxisini tushunmasligi mumkin.

Shundan kelib chiqib lombard yoki sisiliya tillarini alohida mavjud tillar deb ham bo'lmaydi.

"Adabiy tilmi yoki dialekt?" tushunchalarini bir-biridan ajratish qanchalik qiyin bo'lishiga qaramay roman tillarida so'zlashuvchilar nutqini alohida olingan roman tillarining ko'rinishi sifatida tan olmoqdalar.

Shunday qilib, roman tillariga quyidagilar kiradi:

1. Ushbu guruhga ispan, portugal, fransuz, italyan, rumin tillari kirib, ular yagona ma'muriy xududda yashovchilar uchun rasmiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayrimlari esa davlatlararo muloqotni ham amalga oshiradi.

2. Ikkinchi guruhga moldavan, retoroman va katalan tillari kiradi va ushbu tillar yagona ma'muriy xududda emas, balki avtonom viloyatda, alohida olingan respublikada muloqot mezonini bo'lib xizmat qiladi.

3. Provansal (oksitani) va galisiy tillari kirib, bu tillar adabiy, madaniy va juda boy tarixga ega.

4. Sardin tili bo'lib, tarixiy etnik jamoa uchun xizmat qilgan va boshqa roman tillaridan o'zining aniq ifodalangan strukturasi bilan ajralib turadi.

Roman tillari guruhiga yana hozirgi paytda yo'qolib ketgan dalmatin tili ham kiradi. Bundan tashqari tarixiy taraqqiyot natijasi o'laroq ispan, portugal va fransuz tillari asosida kreol tillari shakllangan. Ispan tilining alohida ko'rinishi sifatida sefard tili ham roman tillari guruhiga tegishlidir.

Roman tillari ikkita katta, ya'ni g'arbiy va sharqiy guruhlarga bo'linadi. Bo'linish XX asrda F. Dis tomonidan amalga oshirilgan. Bu tasnif faqat oltita roman tillarini qamrab olgan, xolos. Bular ispan, portugal, fransuz, provansal, italyan, rumin tillaridir. Roman tillarini g'arbiy va sharqiy guruhlarga ajratishda fonetik, qisman morfologik xarakterda bo'lgan omillar mezon qilib olingan. Ulardan eng mohiyatlisi jarangsiz intervokal undoshlarni (p,t,k) jarangliga aylanishidir.

<b>G'arbiy roman tillari</b>	<b>Sharqiy roman tillari</b>
Aniq artikl otdan oldin qo'yiladi va turlanmaydi. Lotin tili kelishiklari bilan ifoda etiladigan sintaktik munosabatlar predloglar orqali amalga oshiriladi. <i>lot.</i> vicini amicus <i>isp.</i> el amigo del vecino <i>port.</i> o amigo do vizinho <i>ital.</i> l' amico del vecino <i>frans.</i> Je veux chanter	Aniq artikl otdan keyin qo'yiladi va turlanadi. Kelishik munosabatlari ot turkumiga kiruvchi so'zni artikl bilan turlanishi orqali ifodalanadi. <i>rum.</i> prietenul vecinului <i>mold.</i> приетинул вечинулуй

Lotin tilidan roman tillariga o'tishda ayrim tillarda yuqorida keltirigan tovushlar jaranglashgan:

*lot.* (og'zaki) potere > *isp.* poder, *port.* poder, *frans.* pouvoir.

G'arbiy va sharqiy guruhlarga bo'linishi, bu tillarni to'laligicha strukuraviy jihatdan bir-biriga mos tushadi degan gap emas.

Roman tillari yana umumiy xudud tamoili bo'yicha ham guruhlarga birlashadi. Mana shu asos bo'yicha XX asrning 40-50 yillari italyan olimi Karlo Tayavini tomonidan roman tillari 4 ta, yani ibero-roman, gallo-roman, italo-roman

va bolqon-roman xududlariga ajratilgan. Quyidagi jalvalda tasnif yana ham yaqqolroq aks etgan:

<b>G'arbiy roman tillari</b>					<b>Sharqiy roman tillari</b>
<i>Xududlar</i>	<i>Ibero-roman</i>	<i>Gallo-roman</i>	<i>Reto-roman</i>	<i>Italo-roman</i>	<i>Bolqon-roman</i>
<i>Tillar</i>	Ispan, Portugal, Galisiy, Katalan, Provansal	Fransuz, Katalan, Provansal	Retoroman, Shveysar, Tirol, friul variantlari	Italyan, Sardin	Rumin, Moldavan
<i>Roman nutqini boshqa ko'rinish Lari</i>	Goskon	Franko-provansal, Goskon			Arumin, Meglenit, Istriot

Barcha roman tillarini ichida lotin tilidan ko'p farq qiladigani ham fonetik, ham grammatik jihatdan fransuz tilidir. Masalan, fe'llardagi fleksiyaning yo'qolib ketishi natijasida olmosh-egani, fe'ldan oldin kelishini taqozo etdi.

Qiyoslang: *isp. canto, cantas, canta* va *frans. Je chante, tu chantes, it chante* va boshqalar.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Roman tillari kelib chiqishi jihatidan qaysi til manbasidan paydo bo'lgan?
2. Romaniya amasi qay ma'nolarda ishlatilgan?
3. Nima uchun roman tillarining soni masalasi muammoli sanaladi?
4. G'arbiy va sharqiy roman tillari morfologik jihatdan bir-biridan qanday farq qiladi?
5. Roman tillarini xudud tamoyili bo'yicha tasniflang.

9-ma'ruza (2 soat)

**Mavzu: Hozirgi zamon roman tillari.**

Reja:

1. Roman tilarining dunyo xududlariga tarqalishi va ularning ko'rinishlari.

- a) portugal, galisiy va ispan tillari;
- b) katalan, fransuz, provansal tillari ;
- v) italyan, sardin, retoroman tillari;
- g) Rumin, moldavan va kreol tillari.

**Kalit so'zlar:** portugal, galisiy, ispan, katalan, fransuz, provansal, italyan, sardin, retoroman, rumin, moldavan va kreol tillari.

Er sharining 10 \ 1 qismi aholisining ona tilini roman tillari tashkil qiladi. Roman tillari juda ko'p davlatlarda radio, televidenie, matbuot, rasmiy hujjatlarning aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, yarim milliard insonlarning ham har kungi muloqot mezonidir.

Roman tillarining dunyo xududlarida tarqalishi va ularning ko'rinishlari quyidagichadir:

**Portugal tili** - dunyoning ikki Azor va Madeyra orollarini qo'shib olganda Portugaliya va Braziliya davlatlarining rasmiy so'zlashuv tilidir. Qolaversa, Angola, Mozambik, Gvineya-Bisau, Yashil Burun, San-Tome va Prinsipi kabi davlatlarning rasmiy tili hisoblanadi. Shuningdek, Portugaliyaning sobiq mustamlakasi sharqiy Timorning ham rasmiy aloqa tili bo'lib xizmat qiladi.

Portugal tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 140 milliondan ortiqroq kishini tashkil qiladi.

**Galisiy** tilida so'zlashuvchilar-Portugaliyaga chegaradosh Iberiya yarim orolida joylashgan Galisiya aholisi so'zlashadi. Genetik jihatdan ushbu til portugal tiliga yaqin qarindosh hisoblanadi.

XII-XIII asrlarda galisiy tilida boy poetik asarlar yaratilgan, ammo keyinchalik bu tilning yozma an'alarini bo'shashib ketganligi sabab muvaffaqiyatga erisha olmadi. Hozirgi paytda galisiy tili muloqot mezonini bo'lib faqat qishloq joylarda xizmat qilmoqda va folklorda qo'llanilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida qo'shimcha fan sifatida o'rganilmoqda.

**Ispan** tili dunyoning 20 dan ortiq davlatining rasmiy davlat tili hisoblanadi. Eng avvalo Ispaniyaning davlat tili, uning tarkibiga O'rta Yer dengizidagi Balear orollari va Atlantika okeanidagi Kanar orollari ham kiradi. Lotin Amerikasidagi Argentina, Boliviya, Venesuela, Gvatemala, Gonduras, Dominikan Respublikasi, Kolumbiya, Kosta-Riko, Salvador, Kuba, Meksika, Nikaragua, Panama, Paragvay, Peru, Puerto-Riko, Urugvay, Chili, Ekvador kabi davlatlarning ham rasmiy davlat tilidir. So'nggi hisob-kitoblarga qaraganda Lotin Amerikasining aholisining soni

Hozirgi paytda 340 million kishini tashkil etadi va bundan 200 millioni ispan tilida so'zlashuvchilar hisoblanadi.

Aholi hisobiga ispan tilida so'zlashuvchilarning ko'pchiligini meksikaliklar, ya'ni 65 millionini tashkil etadi. Puerto-Rikoda ikkita rasmiy til mavjud-ingliz va ispan. Peruda esa ispan tili bilan bir qatorda hindular tili kechua ham rasmiy til hisoblanadi. Paragvayda ham hindular tili guarani keng tarqalgan. Bu tilda adabiyotlar nashr hilinsa ham rasmiy til maqomiga ega emas. Hozirgi paytda Lotin Amerikasida 30 milliondan ortiq aholi hindu tillarida muloqot qiladilar.

Ispan tili Afrika davlati hisoblanmish Ekvatorial Gvineya Respublikasining rasmiy tilidir.

Ispan tilida asosan aholining harbiy Saxaradagi yevropalik qismi, hamda Morokko qirolligida so'zlashadilar, chunonchi Morokko qirolligining rasmiy tili arab tilidir.

Ispan tilidan Filippin Respublikasining unchalik ko'p bo'lmagan qismi ham foydalanadi, ammo keyingi paytlarda ispan tili rasmiy til hisoblanmish ingliz va tagal tillari tomonidan siqib chiqarilmoqda. Ispan tilida muloqot qiluvchilarning umumiy soni 240 milliondan ortadi. Qolaversa, ispan tili ingliz, arab, xitoy, rus, fransuz tillari kabi BMT ning rasmiy hamda ish yurituvchi tili hisoblanadi.

**Katalan** tilida so'zlashuvchilarning ko'pchiligi (6 milliondan ortiqroq) Ispaniyaning sharqiy viloyatlarida yashaydilar. Kataloniyada, qisman Valensiyada va Aragonda, Balear orollarida ham.

Uzoq yillardan qilib kelinayotgan sa'i-harakatlar tufayli 1980 yili Kataloniya avtonom maqomiga ega bo'ldi.

Katalan tili sharqiy Pirineyadagi Andorra davlatining ham rasmiy tilidir. Andorra aholisi ispan hamda fransuz tillaridan ham teng xuquqli rasmiy til sifatida foydalanadilar. Katalan tilidan sharqiy Pirineyadagi (Benin) fransuz dipartamentining aholisi ham foydalanishadi. Katalan tilida so'zlashuvchilar AQSh, Lotin Amerikasida, qisman Kuba va Argentinada yashaydilar.

**Fransuz tili** — xindevropa tillari oilasining roman guruxiga mansub til; Fransiya, Fransiya Gvianasi, Gaiti, Monako, Benin, BurkinaFaso, Gabon, Gvineya, Kongo Demokratik Respublikasi, Kongo Respublikasi, Kot d'Ivuar, Mali, Markaziy Afrika Respublikasi, Niger, Senegal, Togo, Chad davlatlarining rasmiy tili; Belgiya Kirolligi, Shveysariya Konfederatsiyasi, Kanada, Lyuksemburg , Andorra, Kamerun, Madagaskar, Burundi, Ruanda, Komor Orollari Federativ Islom Respublikasi, Jibuti, Vanuatu, Seyshel Orollari davlatlaridagi rasmiy tillardan biri. Italiya va AQShning belgili xududlarida ham tarqalgan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 100 mln. kishidan, Fransiyaning o'zida 57 mln.

kishidan ortiqroq (o'tgan asrning 90-yillari). BMTning rasmiy va ishchi tillaridan biri.

Asosiy lahjalari: frans (hozirgi Fransuz tilining tarixiy negizi), shim. (Belgiyadagi normand, pikard, vallon va boshqalar), g'arbiy (anjuy, gallo va boshqalar), jan.g'arbiy (puatevin), markaziy, jan.sharkiy (burgund, franshkont), sharkiy (lotaringiya, shampan), frankprovansal.

Fransuz tili istilochilar tili (lotin tili) va Galliya tub aholisi tillarining o'zaro ta'siri jarayonida shakllangan. Fransuz tili tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi: gallroman (5—8-asrlar), eski fransuz (9—13-asrlar), o'rta fransuz (14—15-asrlar), ilk yangi fransuz (16-asr), yangi fransuzklassik (17—18-asrlar) va hozirgi fransuz (19-asrdan). O'rta asrlarda umumfransuz yozma tili maydonga keladi, 16-asrda milliy til (1539 yildan davlatning rasmiy tili) shakllanadi. 17-asrda adabiy til me'yori barqarorlashadi. 20-asrda adabiy va og'zaki nutq o'rtasida sezilarli farq paydo bo'ladi. Dastlabki yozma yodgorliklari 8—9-asrlarga mansub.

Fonetik xususiyatlari sifatida urg'usiz, ayniqsa, so'z oxiridagi unilarning reduksiyasi, urg'uning asosan so'nggi bo'g'inga tushishi, urg'u ta'sirida unilarning o'zgarishi, unililar o'rtasidagi va so'z oxiridagi undoshlarning tushib qolishi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Fransuz tili morfologiyasi uchun analitizm xarakterlidir (murakkab zamon, nisbat, qiyosiy darajalarning analitik shakllari). So'zlarning morfologik jihatdan o'zgarmaslikka moyilligi kuzatiladi. Bir kancha fannatik ma'nolar (jins, son, shaxs)ning ifodalanishi ko'pincha sintaksis sohasiga ko'chiriladi, yordamchi so'zlar keng qo'llanadi. Fe'l sohasida 4 mayl, 3 nisbat va keng tarmokdi zamon shakllari mavjud. Leksikasida gallardan sakdanib qolgan so'zlardan tashqari franklar tilidan sakdanib qolgan muayyan qatlam ham mavjud. Fransuz tili rivojida adabiy lotin tili katta rol o'ynagan; undan ko'plab so'zlar, so'z yasaliq qoliplari, sintaktik tuzilmalar o'zlashgan.

Yozuvi bir qancha diakritik belgilar qo'shilgan lotin alifbosi asosida shakllangan. Fransuz tili Belgiya, Shveysariya va Kanadada milliy variantlarga, Afrika mamlakatlarida esa, asosan, fonetik va lug'aviy o'ziga xosliklarga ega.



**Provansal yoki oksitan tili** - janubiy Fransiya aholisining bir qismini ona tilidir. Provansal tilida so'zlashuvchilarning aniq hisobi yo'q, taxmin qilinishicha 2 mil. dan 8 mln.gacha kishi so'zlashadi.

"Provansal tili" atamasi sobiq Rim provinsiyasi (Provincia Romana) ning nomidan kelib chiqqan. Bu tilning tarixi qisqacha quyidagicha: O'rta asrlarda (IX-XIII) Fransiyaning janubidagi yuridik hujjatlar va ma'muriy qog'ozlar tili bo'lib qadimgi provansal tili ishlatilgan. XII-XIII asrlar mobaynida provansal adabiyoti, ayniqsa lirikasi (poeziyasi) gullab yashnagan. Ammo 1539 yili Fransiya qiroli Fransiska I ning farmoniga binoan barcha yuridik hujjatlar faqat fransuz tilida olib borilsin deyilgandan so'ng provansal tilining nufuzini tushirib yubordi. Hozirgi Fransuz jamiyatida provansal tili mahalliy lahja maqomiga ega, xolos. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga fransuz tilini kiritish siyosati provansal tilining ijtimoiy vazifalarini yo'qolishiga olib keldi.

Tillardan aloqa vositasi sifatida foydalanish Fransiyada o'ziga xos xususiyat kasb etadi, chunki bu yurtda fransuz tili rasmiy davlat tili hisoblansada, u bilan bir qatorda turli xududlarda bask, katalan, provansal, italyan tilining korsikan dialekti, breton, flamand tillari, nemis tilining elzas dialekti ham ishlatiladi.

**Italyan tili** - Apennin yarim orolidan tashqarii yana Sardiniya va Sisiliya orollarini qamrab oluvchi Italiya davlatining rasmiy davlat tilidir. Aholining umumiy soni 57 mln. Bo'lsa, undan 98 % italyanlardir. Italiya xududidan tashqarida, jumladan, AQSh va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 4 milliondan 10 milliongacha italyanlar yashaydilar.

Italyan tili Shveysariyaning ham rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, bu til Apennin yarim orolida joylashgan kichkina davlat San-Marinoning (21 ming aholisi bor) ham rasmiy davlat tili bo'lib xizmat qiladi.

Italyan tili Afrikadagi Somali Demokratik Respublikasining uncha ko'p bo'lmagan aholisi tomonidan ham ishlatiladi (evropaliklardan kelib chiqqan qismi). Rasmiy til bo'lib bu yurtda Somali va arab tili qabul qilingan. Italiyan tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 65 milliondan ortadi.

**Sardin** yoki **sard tili** - Sardiniya oroli xududida yashovchi ozchilik aholining tilidir. Bu tilda muloqot qiluvchilarning taxminiy soni 0,5 millionga yaqin. Aholining yosh bo'g'ini italn tilida erkin so'zlashganligi tufayli bu tilga italyan tilining ta'siri katta. Italyan tilidan so'z va iboralar qabul qilinmoqda, gaplarning sintaktik strukturalari esa italyan tili grammatikasi qoidalari asosida tuzilmoqda.

**Retoroman tili** - Alp tog'lari xududlarida bir guruh roman tili nutqiga o'xshash tildan foydalanuvchi aholi yashaydi. Tabiiy tog' sharoiti, uylarning tarqoq joylashishi har bir qishloq, viloyatning mahalliy xarakterini belgilaydi va shu bilan birga o'sha joydagi lahjani boshqalaridan ajratib turadi. Retoroman tili atamasi F. Disning "Roman tillari grammatikasi" asarida uchraydi.

Retoroman tili konstitusiya bo'yicha Shveysariya konfederasiyasining milliy tili maqomiga ega. Bu tilda vaqtli matbuot nashr qilinadi va universitetlarda o'qitiladi. Retoroman tili uch shveysar, tirol va friul variantlarda ishlatiladi. Bu tillarda so'zlashuvchi aholining soni aniq emas.

**Rumin tili** - Ruminiya respublikasining rasmiy davlat tilidir. Bu tilda 22 milliondan ortiqroq kishi so'zlashadi. Bolqon yarim oroliga joylashgan davlatlarda rumin nutqining 3 ko'rinishi mavjud.

Ular - arumin, meglent, istriot ko'rinishdagi variantlardir. Bu uch rumin lahjalari X-XII asrlarda ro'y bergan aholi ko'chishi tufayli umumrumin tilidan ajralib ketgan.

**Moldavan tili** - Moldaviya respublikasining rasmiy davlat tilidir. Aholining 65% yoki taxminan 2,6 million kishi moldavan tilida so'zlashadi.

Genetik va tuzilishi jihatidan moldavan tili rumin tiliga yaqin turadi. Ammo rivojlanishning tarixiy sharoitlari bu ikki qarindosh tilni bir-biridan farqlab, moladvan tilini alohida til ko'rinishida rivoj topib. mustaqil millat tiliga aylantirgan.

**Kreol tillari** - 1492 yili Amerika qit'asining ochilishi bu yurtga ko'pchilik yevropaliklarning ko'chib o'tishiga olib keldi. Yerli aholini qirib tashlab Afrikaning turli viloyatlaridan qora tanlilarning olib kelinishi natijasida bir xil

jismoniy mehnat bilan band bo'lib, yelkama-elka yashab turgan qullar bir-birini va xo'jalarini tushuna olmaydigan vaziyatni yuzaga keltirdi. Bu narsa o'z navbatida vositachi-tilga ehtiyoj tug'dirdi. har bir konkret vaziyatda bironta yevropa tili ana shu vazifani bajarib turdi. Keyinchalik portugal, ispan, fransuz va g'arbiy Yevropa tillarini ommaviy tusda egallash, o'rganish jarayoni boshlanib ketdi.

G'arbiy Yevropa tillarini o'rganish gapirish, eshitish orqali bo'lganligi sababli juda ko'p tovushlar gapiruvchilarning ona tilidagi tovushlariga o'xshab talaffuz etilardi. Shunday qilib, yevropa, eng avvalo, roman tillari asosida talaffuzi me'yoriga to'g'ri kelmaydigan buzuq tillar yoki "Pinjin tillar" paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan bu tillar doimiy muloqot uchun xizmat qiladigan tillarga aylandi. Bu tillar hozirgi paytda ham mavjud va ularni kreol tillari deb atashadi.

Kreol so'zining etimologiyasi noma'lum. Faqat bu atama hindular tilidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Birinchi marotaba bu atama XVI asr oxirlaridagi ispan tilidagi matnlarda uchraydi.

Kreol tilining fransuz toifasida shunday so'zlar uchraydi: *wet, conet, lot, dot*. Ular fransuz tilidagi quyidagi so'zlarga to'g'ri keladi: *wettre, connaitre, l'autre, d'autre* kabilar.

**Lotin tili** — hind-yevropa tillari oilasining italiy tillari guruhiga mansub; Italiyaning o'rta qismidagi Latsiy viloyatida miloddan avvalgi 8-asrda yashagan lotin kabilasining tili. Lotin tilining asta-sekin Rim hududidan tashqariga tarqalishi va qad. Italiyaning boshqa tillarini siqib chiqarishi miloddan avvalgi 4—3-asrlarga to'g'ri keladi. Apennin ya. o.ning lotinlashuvi (yunon tili hukmron bo'lgan Jan. Italiya va Sitsiliya bundan mustasno) miloddan avvalgi 1-asrda yakunlanadi. Rim imperiyasining gullab-yashnashi, yangi-yangi mustamlakalarning bosib olinishi natijasida Lotin tili Shim. Afrika, Ispaniya, Galliya, Germaniya, Dunaybo'yi hududlariga tarqaladi. Lotin tilidagi eng qad. yodgorliklar miloddan avvalgi 3-asrga mansub.

Qadimgi davr Lotin tili tarixi bir-biridan u yoki bu darajada farqlanuvchi 5 ta davrga ajratiladi:

- 1) eng qadimgi Lotin tili davri (miloddan avvalgi 6—4-asrlar);
- 2) klassik davrgacha boʻlgan Lotin tili davri (miloddan avvalgi 3—2-asrlar, adabiy Lotin tilining shakllanish vaqti);
- 3) klassik, "oltin" Lotin tili davri (miloddan avvalgi 1-asr, juda boy leksika va rivojlangan adabiyoti bilan ajralib turadi);
- 4) klassik davrdan keyingi, "kumush" Lotin tili davri (milodiy 1-asr, adabiy tilning fonetik va morfologik meʼyorlari uzil-kesil shakllandi);
- 5) soʻnggi bosqichdagi Lotin tili (2— 6-asrlar; yozuv tili bilan xalq-soʻzlashuv tili-"xalqona lotin" oʻrtasida tafovut paydo boʻldi).

5-asrda Rim imperiyasi qulaganidan keyin xalq-soʻzlashuv tilining mintaqaviy farqlanishi tezlashib, bu nar-sa 9-asrga kelib alohida, mustaqil roman tillarinkng (italyan, fransuz, portugal, ispan, rumin, moldavan va boshqalar) paydo boʻlishiga olib keldi. Yozma Lotin tilining birligi saqlanib qoldi, u leksik jihatdan rivojlanishda davom etdi, klassik Lotin tilining asosiy lugʻat tarkibi va grammatik kurilishi barqarorlashdi. Adabiy Lotin tili tarqalgan barcha hududlarda u maʼmuriy boshqaruv, savdo-tijorat, maktab tili edi; oʻrta asrlarda butun Gʻarbiy Yevropa umumiy yozuv tili boʻlib qoʻllandi; 18—19-asrlargacha diplomatiya, ilm-fan va falsafa tili, 20-asrda esa katolik cherkovi tili, Vatikanning (italyan tili bilan birga) rasmiy tili boʻlib qoldi. Lotin tili Yevropa madaniyati rivojida ulkan rol oʻynadi. Yevropa tillaridagi siyosiy, ilmiy va texnik terminologik tizimlarning leksik jihatdan boyishi va koʻpayib borishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Lotin tili qadimiy hind-yevropa tillariga xos, uni xett tili, hind-eron, kelt tillari bilan yaqinlashtiruvchi xususi-yatlarni saqlab qolgan. Asosiy fonetik jihatlari unda unlilar chuzikli-gining fonologi k farqlanishiga egaligi, urgʻu soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushmasligi, undoshlarning kuchsizlanib borishi kabilardan iborat. Morfologik xususiyatlari: fleksiyaning shakl yasashning asosiy vositasi sifatida foydalanish, fleksiyaning 5 turi mavjudligi, turlanishning 6 kelishikka asoslanishi, feʼllarda 3 xil mayl (indikativ, konʻyunktiv, imperativ) va 2 xil nisbat (aktiv va

oʻrta passiv) farqlanishi va boshqa Soʻz tartibida feʼl ran oxirida keladi. Lotin tili leksikasida yaqin qarindosh yoki noqarindosh qabilalar tillarining taʼsiri saqlanib qolgan. Lotin tiliga yunon tili, ayniqsa, miloddan avvalgi 3— 1-asrlarda kuchli va davomli taʼsir koʻrsatgan. Lotin tili leksikasi, yunon tili bilan birga, ilmiy terminologiya sohasida xanuz baynalmilal terminlarni yaratishda manba boʻlib xizmat qilmoqda.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Portugal tili dunyoning qaysi davlatlarida ham rasmiy, ham muloqot tili boʻlib xizmat qiladi?
2. Galisiy tili haqida nimalar deya olasiz?
3. Ispan tili dunyoning qaysi davlatlarida ham rasmiy, ham muloqot tili boʻlib xizmat qiladi?
4. Katalan tili xususida gapiring?
5. Fransuz tilidan qaysi davlatlarda foydalaniladi?
6. Provansal yoki oksitan tili haqida gapiring.
7. Italyan tili dunyoning qaysi davlatlarida ham rasmiy, ham muloqot tili boʻlib xizmat qiladi?
8. Rumin tili qanday koʻrinishlarga ega?
9. Retoroman atamasining kelib chiqishi hususida fikr bering.
10. Kreol tillari qanday omillar asosida paydo boʻgan?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. И.П. Иванова, Л.П. Чехоян. История английского языка. М., 1976.
2. Б.А. Ильиш. Древнеанглиский язык. М., 1968.
3. А.И. Смирницкий. История английского языка. М., 1955.
4. В.Н. Ярцева. Историческая морфология анлийского языка. М.-Л., 1960.
5. В.Я. Плоткин. Динамика английской фонологической ситемы. Н., 1967.
6. Т.А. Расторгуева. Курс лекций по истории английского языка. Вып 1-2. М., 1969.
7. В.Н. Ярцева. Развитие национального литературного английского языка. М., 1969.
8. И.П. Иванова. Хрестоматия по истории английского языка. Л., 1973.
9. С.Р. Раҳимов Роман герман филологиясига кириш. Андижон, 2005.
10. Алисова Т.Б., Репина Т.А., Таривердиева М.А. Введение в романскую филологию. Учебник. — 3-е изд., испр. и доп. — М.: Высшая школа, 2007. — 453 с. — ISBN 978-5-06-005634-1.
11. Будагов Р.А. Язык и культура. Хрестоматия: в 3 ч. Учебное пособие, Ч.2: Романистика/ Сост.А.А.Брагина, Т.Ю.Загрязкина – М.:Добросвет, 2000, 2001.
12. История средних веков. Под ред.С.Д.Сказкина. Изд.2., т.1. М.: Высшая школа, 1977.
13. Йордан Й. Романское языкознание. Историческое развитие, течение, методы. /Пер. с рум. С.Г.Бережан и И.Ф.Мокряк. – М.: Изд-во «Прогресс», 1971.
14. Методическое пособие к спецкурсу «Введение в историю романских языков»/ сост. М.А.Таривердиева, - М.: МГПИИЯ м.М.Тореза, 1974.